

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

«TASDIQLAYMAN»

Ekspert kengashi raisi

t.f.d., professor

_____ **M.M.Madazimov**

«_____» _____ 2026 y.

**MAXPIYEVA GULDONAXON KABILJANOVNA, SHAMSIYEV FURQAT
MUHITDINOVICH VA AZIZOVA NIGORA DAVLYATOVNALAR**

**“SEMIZLIK KUZATILGAN BOLALARDA BRONXIAL ASTMANING
KECHISH XUSUSIYATLARI”**

(Monografiya)

Andijon– 2026 y

Tuzuvchilar:

G. K. Maxpiyeva

**Andijon Davlat tibbiyot instituti davolash
fakulteti uchun pediatriya kafedrası
dotsent, PhD.**

F. M. Shamsiyev

**O'z R SSV RIPIATM pulmonologiya
bo'limi mudiri professor, t.f.d**

N.D. Azizova

**O'z R SSV RIPIATM pulmonologiya
bo'limi yetakchi ilmiy xodimi, t.f.d**

Taqrizchilar:

Sh. S. Movlonova

**O'z R SSVRIPIATM umumiy
pediatriya bo'limi mudiri t.f.d**

Z.B. Xafizova

**Andijon Davlat tibbiyot instituti
Davolash fakulteti uchun pediatriya
kafedrası dotsenti, t.f.n**

Monografiya Andijon davlat tibbiyot instituti Ekspert kengashi tomonidan 2026 yil
“____”_____, ____-son bayon bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya
etilgan

ADTI Ekspert kengash kotibi

t.f.n., dotsent

D.O.Ten

MUNDARIJA

KIRISH	7
I.BOB.BRONXIAL ASTMALI BOLALARDA SEMIZLIKNING ZAMONAVIY QARASHLARI (adabiyotlar sharhi)	10
1.1. Semizlik kuzatilgan bolalarda bronxial astma muammolari	10
1.2. Bronxial astmali bolalarda semizlikning tarqalishi va rivojlanish xavf omillari	14
1.3. Semizlik bilan kechuvchi bronxial astmada D vitaminining ahamiyati hamda davolash-profilaktik chora-tadbirlar	17
II.BOB SEMIZLIK KUZATILGAN BOLALARDA BRONXIAL ASTMANING UCHRASH CHASTOTASI VA KLINIK KECHISH XUSUSIYATLARI	22
2.1 Tekshirilgan bemorlarda hamroh va o‘tkazilgan kasalliklarni omolli tahlili	30
2.2. Asosiy klinik simptomlarning omilli tahlili	39
2.3. Bronxial astmali bolalarda semizlikning klinik-biokimyoviy o‘zaro bog‘liqligi	41
2.4. Semizlik bilan kechuvchi bronxial astmali bolalarda D vitamini bilan ta’minlanganlik tavsifi	45
III.SEMIZLIK BILAN KECHUVCHI BRONXIAL ASTMALI BOLALARDA KOMPLEKS DAVOLASH CHORA-TADBIRLARINING SAMARADORLIGI	53

3.1. Kompleks differensial terapiyaning semizlik bilan kechuvchi bronxial astmali bolalardagi klinik-biokimyoviy ko'rsatkichlarga ta'siri	54
3.2. Semizlik bilan kechuvchi bronxial astmali bolalarni katamnestik kuzatish	59
XULOSA	70
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	79

SHARTLI QISQARTMALAR RO‘YXATI

AG - arterial gipertenziya
AB - arterial bosim
AS - abdominal semizlik
AR - allergik rinit
BA - bronxial astma
DAB - diastolik arterial bosim
O‘HH - o‘pkaning hayotiy hajmi
O‘FHH - o‘pkaning funksional hayotiy hajmi
TNCHH1 – bir soniyada tezlashgan nafas chiqarish hajmi
NCHEYT – nafas chiqarishning eng yuqori tezligi
SHT 50 – soniyali hajmiy tezlik
AI - aterogenlik indeksi
IL - interleykin
TVI - tana vazni indeksi
IR - insulinrezistentlik
IRI - immunoreaktiv insulin
YZLP - yuqori zichlikdagi lipoproteidlar
PZLP - past zichlikdagi lipoproteidlar
MS - metabolik sindrom
S - semizlik
HOMA-R - insulinrezistentlik indeksi
GTB - glyukozaga tolerantlikning buzilishi
SA - son aylanasi
BA - bel aylanasi
UX - umumiy xolesterin
GTPT - glyukozaga tolerantlikning peroral testi
SAB - sistolik arterial bosim
QD - qandli diabet
EYK - erkin yog‘ kislotalari
YQTK yurak-qon tomir kasalliklari
TG- triglitseridlar
TNF tashqi nafas funksiyasi
O‘NO - o‘sma nekrozi omili
QB - qalqonsimon bez
EKG - elektrokardiografiya

ANNOTATSIYA

Bolalarda kasalliklarni tashhislashda klinik va anamnestik faktlarni tahlil qilish, kasallikning klinik ko'rinishlarini aniqlash, kasallikning bolalar orasida uchrash darajasi, asosiy terapevtik preparatlari bolalarda patologiyani xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi.

Monografiyada bolalarda bronxial astmaning etiologiyasi, epidemiologiyasi, patogenezini, klinik ko'rinishi, diagnostika choralari, davolash va profilaktikasi to'g'risida zamonaviy tushunchalar keltirilgan.

Monografiyada O'zbekiston Respublikasida pediatriya yordamini tashkil etish, semizlik kuzatilgan bronxial asmaga chalingan bolalarga yordam ko'rsatishning ambulatoriya va statsionar bosqichlari, shoshilinch yordam ko'rsatishning boshqarishning zamonaviy tamoyillari ko'rsatilgan.

Monografiyapediatriya va davolash fakulteti 5-6 kurs talabalari, magistr lar vaklinikordinatorlar uchun mo'ljallangan.

АННОТАЦИЯ

Анализ клинико-anamnestических фактов в диагностике заболеваний у детей, выявление клинических проявлений заболевания, заболеваемость среди детей, основные терапевтические препараты, позволяющие определить особенности патологии у детей.

Монография представляет современные концепции этиологии, эпидемиологии, патогенеза, клинических проявлений, диагностических мер, лечения и профилактики бронхиальной астмы у детей.

Монография описывает организацию педиатрической помощи в Республике Узбекистан, амбулаторное и стационарное лечение детей с бронхиальной астмой и ожирением, а также современные принципы оказания неотложной помощи. Монография предназначена для студентов 5-6 курсов факультета педиатрии и медицинских наук, магистров и ординаторов.

ANNOTATION

The analysis of clinical and anamnestic facts in the diagnosis of diseases in children, the identification of clinical manifestations of the disease, the incidence of the disease among children, the main therapeutic drugs allowed to determine the characteristics of the pathology in children.

The monograph presents modern concepts of the etiology, epidemiology, pathogenesis, clinical manifestations, diagnostic measures, treatment and prevention of bronchial asthma in children.

The monograph shows the organization of pediatric care in the Republic of Uzbekistan, the outpatient and inpatient stages of care for children with bronchial asthma with obesity, and modern principles of emergency care management. The monograph is intended for 5-6-year students of the Faculty of Pediatrics and Medical Sciences, masters and clinical residents.

KIRISH

Dunyoda so‘nggi yillarda bolalar orasida allergik kasalliklar shu jumladan bronxial astma (BA) va semizlik zamonaviy pediatriyaning dolzarb muammosi hisoblanadi. Ohirgi o‘n yillikda epidemiologik tadqiqotlar bo‘yicha 4–9% aholi bronxial astma bilan aziyat chekayotgani va shundan 5–10% i bolalar orasida uchrashi aniqlangan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma‘lumotlariga ko‘ra bronxial astmadan kasallangan 300 mlndan ortiq bemor bor, dunyoda har yili tug‘ilgan 120 million boladan “... yiliga 13 millioni nogironlikka chiqariladi. Bolalar nogironligi sabablari orasida bronxial astma va semizlik o‘rtacha 12–18% ni tashkil etadi va bemorlarning ko‘pchiligi 85%i nafas yetishmovchiligidan vafot etadi. Bolalarda bronxial astma va semizlikni uchrash darajasining yuqoriligi, patogenezing murakkabligi va kasallik oqibatlarining og‘irligi o‘z navbatida uni erta tashxislash, oqibatlarini bashoratlash va davolash chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda uni amaliy tibbiyotga tadbiiq qilishni taqozo etmoqda.

Bolalarda bronxial astma va semizlikning uchrash darajasi va rivojlanishining klinik-genetik jihatlarini aniqlash, davolash va profilaktikasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan qator ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Semizlik va bronxial astmaning birgalikda uchrashi bolalarda bu kasallikning og‘ir kechishi bilan ajralib turadi va ularning hayot sifatini pasaytiradi, bu esa asosiy tibbiy va ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada bolalarda bronxial astma va semizlik shakllanishining patogenetik mexanizmlari hamda prognostik xavf omillarini aniqlash, zamonaviy klinik-diagnostik tadqiqot usullari asosida umumiy klinik, funksional va biokimyoviy tekshiruvlar, D vitaminining diagnostik mezonlarini belgilash, profilaktika usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, bolalarda bronxial astma va semizlikni erta tashxislash, asoratlarini kamaytirish maqsadida “mamlakatimizda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, shuningdek, tibbiy standartlashtirish tizimini shakllantirish, tashxis

qo'yish va patronaj xizmati hamda dispanserizatsiyaning samarali modellarini yaratish orqali sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va kasalliklarni profilaktika qilish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu borada bolalarda tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yangi bosqichga ko'tarish, bolalar salomatligini mustahkamlash, ayniqsa bolalarda uchraydigan bronxial astma va semizlikni tashxislash va davolashning zamonaviy yuqori texnologik usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish orqali nogironlik va o'lim sabablarini kamaytirishga erishish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi PF-6610-son "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2020 yil 10 oktabrdagi PQ-4847-son "Sog'liqni saqlash sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 10 noyabrdagi PQ-4887-son "Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020 yil 12 noyabrdagi PQ-4891-son "Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali aholi salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

World Health Organization ekspertlari ma'lumotlariga ko'ra, bronxial astma (BA)ning tarqalishi va undan o'lim ko'rsatkichlari ortib bormoqda. Ko'plab klinik tadqiqotlarda ilmiy va amaliy tibbiyotda bronxial astma hamda semizlik kabi ijtimoiy ahamiyatga ega va keng tarqalgan kasalliklarning birgalikda kechishi yuqori darajada uchrashi qayd. Bronxial astma bilan kasallangan bolalarda jismoniy va ijtimoiy faollikning cheklanishi natijasida ularning hayot sifati yomonlashadi. Bronxial astma surunkali bronxo-o'pka patologiyalari orasida nogironlikning eng ko'p uchraydigan sabablaridan biri bo'lib, surunkali o'pka kasalliklari tufayli nogiron bo'lgan bolalarning 70 foizini tashkil etadi.

Xorijiy davlatlar va MDH mamlakatlari pulmonologlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda bronxial astmaning og'ir va asoratlangan shakllari

soni ortib borayotgani aniqlangan. Dunyo miqyosida bolalarda bronxial astmani o'rganish va ushbu toifadagi bemorlarni olib borish bo'yicha differensial dasturlar ishlab chiqishga qaratilgan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy konsepsiyaga ko'ra, bronxial astma patogenezining asosini bronxlardagi surunkali allergik yallig'lanish tashkil etadi. Ushbu yallig'lanishning kelib chiqish sabablari hozirgi vaqtgacha to'liq aniqlanmaganligi sababli, kasallik patogenezini yanada chuqurroq o'rganish zarurati mavjud. Avvalo, surunkali yallig'lanishning yuzaga kelishi va davom etishiga sabab bo'luvchi, uning intensivligini belgilovchi molekulyar, hujayraviy hamda immun mexanizmlarni o'rganish talab etiladi.

Bolalarda bronxial astma rivojlanishining ma'lum xavf omillari — oilaviy allergologik anamnez, atopiya belgilari, eozinofiliya va bronxial obstruksiya epizodlarining tez-tez takrorlanishi bilan bir qatorda, hozirgi kunda D vitamini (25(OH)D)ning roli va uning yetishmovchiligining tez-tez respirator kasalliklarga moyillikdagi ahamiyati faol o'rganilmoqda.

Ushbu yozilgan monografiyada bronxial astma va semizlik bilan kasallangan bolalarda klinik-biokimyoviy, immunologik hamda funksional o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash va patogenetik asoslangan korreksiya qilish kasallikning zo'rayishlari sonini kamaytirish, uning progreslanishini sekinlashtirish hamda remissiya davrini uzaytirishga xizmat qiladi. Bu esa kasallanish ko'rsatkichlari va bolalar nogironligi darajasining pasayishiga olib keladi. Yuqoridagilarni inobatga olib, semizlik bilan kechuvchi bronxial astmali bolalarda erta diagnostika va davolash tamoyillarini takomillashtirishga yordam beradi.

I-BOB. BOLALARDA BRONXIAL ASTMA BILAN BIRGA KECHUVCHI SEMIZLIK HAQIDAGI ZAMONAVIY TASAVVURLAR

1.1. Bolalarda semizlik bilan kechuvchi bronxial astma muammolari

So‘nggi o‘n yilliklar davomida dunyo miqyosida bronxial astma (BA) va ortiqcha tana vazni bilan bog‘liq muammolar sezilarli darajada ortdi. Ushbu kasallik bolalar orasida nafas olish tizimining surunkali patologiyalari ichida yetakchi o‘rinni egallaydi. Shu sababli bronxial astma va ortiqcha vazn, ularning keng tarqalganligi tufayli, bugungi kunda jahon sog‘liqni saqlash tizimining global muammolari qatoriga kiradi. O‘zbekiston sharoitida ham ushbu patologiya nafas tizimi kasalliklari orasida yetakchi o‘rinda bo‘lib, umumiy uchrash darajasining 5 foizini tashkil etadi. Ushbu kasallik nogironlikka olib keluvchi holatlarni ham yuzaga keltiradi. 2015-yilda bronxial astmadan butun dunyo bo‘yicha 400 mingdan ortiq o‘lim holati qayd etilgan. So‘nggi 25 yil ichida astma tufayli o‘lim darajasi 26,7 foizga kamaygan bo‘lsada, uning uchrash chastotasi sezilarli darajada oshgan. Bolalar orasida bronxial astma bilan og‘riganlarning 70 foizi yengil shakl bilan, 20–25 foizi o‘rta og‘irlikdagi shakl, 5–6 foizi esa og‘ir shakl bilan kechadi. Aksariyat hollarda kasallik 2 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan davrda aniqlanadi, bu esa uning og‘ir kechishiga zamin yaratadi.

Ortiqcha tana vazni oziqlanish bilan bog‘liq kasalliklar ichida yetakchi o‘rinda turadi va “sivilizatsiya kasalligi” deb baholanadi. Buning asosiy sabablari orasida yuqori uglevodli va yog‘li oziq-ovqatlar, ortiqcha shakar iste‘moli, jismoniy faollikning pasayishi, noto‘g‘ri kun tartibi va ovqatni ko‘p iste‘mol qilish kabi ijtimoiy omillar turadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, astma bilan og‘riganlar soni 334 milliondan ortiq bo‘lib, bu ko‘rsatkich har kuni oshib bormoqda. Dunyo bo‘yicha astmaning uchrash chastotasi 3% dan 15% gacha bo‘lib, sanoati rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich to‘rt barobargacha oshgan. Shunga qaramay, astmani erta aniqlash darajasi atigi 20% ni tashkil etadi.

Bronxial astmaning geterogenligi uning klinik kechishining asosiy farqlanish omilidir. Ushbu xilma-xillik xorijiy adabiyotlarda qayd etilgan hamda xalqaro va rossiya tibbiy qo‘llanmalarda bayon etilgan. Biroq, bu boradagi keng tadqiqotlarga qaramay, bronxial astma va ortiqcha vazn birga kelishi hali yetarli

darajada o'rganilmagan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu ikki patologiyaning birgalikda kechishi og'ir asoratlar va kasallik ustidan nazoratning yo'qolishiga olib keladi.

Ko'plab ilmiy nashrlarda BA va unga hamroh semirish o'rtasida ko'plab patogenetik bog'liqliklar mavjudligi qayd etilgan. Astma va semirishning yuqori ko'rsatkichlari ularning o'zaro salbiy ta'sirini kuchaytiradi.

Bugungi kunda ortiqcha vazn muammosi dunyoning ko'plab mamlakatlarida ijtimoiy va ekologik omillar (gipodinamiya, yuqori kaloriyalı ovqatlanish) ta'sirida rivojlanmoqda. Ichki omillar qatoriga irsiyat, gormonal holat, genetik mutatsiyalar, jinsiy omillar kiradi.

Bolalarda ortiqcha vazn yoki semirish darajasi protsentil jadvallari yoki tana vazni indeksi (TVI) ning standart og'ishlari (SO) asosida baholanadi. Bu jadvallarda bola yoshi va jinsi hisobga olinadi, chunki TVI yoshga qarab o'zgaradi: hayotning birinchi yilida yuqori bo'lib, bolalik davrida pasayadi, pubertat davrida esa yana ortadi. Bu o'zgarish yog' to'qimasining rivojlanish dinamikasini aks ettiradi.

JSST mezonlariga ko'ra, klassik og'ishlar -1, -2, -3 SDS, median va +1, +2, +3 SO qo'llaniladi. TVI qiymatlarining +1 dan +2 SO oralig'ida bo'lishi ortiqcha vazn, +2 SO dan yuqori bo'lishi esa semirish sifatida baholanadi. Bolalarda astmani erta tashxislash qiyin, chunki ularning nafas tizimi va immun tizimi yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi. Shuningdek, dorilarning o'zlashtirilishi, individual reaksiyalar va davolash natijalarining ishonchliligi bilan bog'liq muammolar mavjud.

Yog' to'qimalarining ortishi bronxial astma rivojlanishining ehtimoliy sababi hisoblanadi, chunki bu holat nafas tizimi faoliyatini buzadi. Biroq bu mexanizm to'liq isbotlanmagan. Ortiqcha vaznga ega bolalar va o'smirlar astma bilan kasallanganda ko'proq shifoxonaga yotqizilishga, uzoqroq davolanishga va iqtisodiy xarajatlarning oshishiga moyil bo'ladilar.

Turli nazariyalarga ko'ra, semirish nafas mexanikasining buzilishi, sitokin muvozanatining o'zgarishi, genetik va endokrin omillar orqali astma kechishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, metabolik sindrom butun dunyoda pediatriyaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, AQShda 2 yoshgacha bo'lgan bolalarning 10 foizi, 2–5 yosh oralig'idagilarning esa 20 foizdan ortig'i semirishdan aziyat chekadi.

Semirish — ko'p omilli, geterogen kasallik bo'lib, pediatriya, endokrinologiya, terapiya, gastroenterologiya, nutritsiologiya, ginekologiya, andrologiya va nevrologiya sohalarini qamrab oladi. Bolalar va o'smirlar orasida semirish bilan og'riqlarning 80 foizida arterial gipertenziya, 25 foizida uglevod almashinuvi buzilishi, 35 foizida alkogolsiz yog'li gepatoz aniqlangan.

O'zbekiston sharoitida esa bolalarda ortiqcha vaznni erta aniqlashga qaratilgan maxsus tadqiqotlar mavjud emas. Shu sababli bu holat ko'pincha kech bosqichlarda aniqlanadi. Ko'plab oilalarda esa bu kasallik "sog'lomlik belgisi" sifatida qabul qilinadi, ayniqsa o'g'il bolalarda. Odatda shifokorga murojaat qilish bosh og'rigi, bosh aylanishi, chanqoqlik, oyoq og'rigi yoki jinsiy yetilishdagi kechikishlar kabi asoratlardan paydo bo'lgach sodir bo'ladi. Tadqiqotlarga ko'ra, pediatrik tekshiruvlar davomida birinchi darajali semirish atigi 5,5 foiz bolalarda aniqlanadi, ammo bu holat barcha holatlarining 65 foizini tashkil etadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, BA bilan kasallanganlarning aksariyati ayol jinsiga bog'liq bo'lsada, bu farq barcha tadqiqotlarda aniqlanmagan. Ayrim manbalar bronxial astma kechishini semirish og'irlashtiradi, deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari, ortiqcha vazn astmatik bemorlarning hayot sifatini pasaytiradi, davolash samaradorligini esa kamaytiradi. Bola rivojlanishidagi sog'lomlikka ta'sir etuvchi omillar haqidagi ko'plab ilmiy tadqiqotlar semirish, metabolik sindrom va yurak-qon tomir kasalliklariga alohida e'tibor qaratadi. Biroq bronxial astma va boshqa nafas tizimi kasalliklari ham aksariyat hollarda bolalik davridan boshlab rivojlanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bronxial astma bilan kasallangan bolalarning 50 foizida kasallik 3 yoshda, 80 foizida esa 6 yoshda aniqlanadi. Tug'ma tana vazni bilan keyingi semirish o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi ilmiy farazlar kasallikning erta rivojlanish sabablari bo'yicha yangi yo'nalishlarni ochib berdi.

Ortiqcha tana vazni bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holat keyinchalik erta o'lim xavfi, mehnatga layoqatsizlik, yurak-

qon tomir kasalliklari, insulin rezistentligi, arterial gipertenziya, hamda psixik buzilishlar rivojlanish xavfini oshiradi.

Semirishda glyukoza almashinuvi buziladi: giperinsulinemiya (GI) holatida insulin retseptorlari faoliyati susayadi, uglevod va yog‘lar yog‘ to‘qimalarida to‘planadi, lipidlar parchalanishi esa kamayadi. Natijada yog‘ to‘qimasi yanada ortadi. Yana bir nazariyaga ko‘ra, asosiy sabab visseral (ichki) yog‘ to‘qimasi ortishi hisoblanadi. Ushbu to‘qimalar ko‘p miqdorda erkin yog‘ kislotalarini ajratadi, ular esa jigar hujayralarida insulinga sezuvchanlikni bloklaydi. Bu esa insulin rezistentligi rivojlanishiga olib keladi.

D. S. Freedman va hammualliflarning ma’lumotlariga ko‘ra, yurak-qon tomir tizimi patologiyalarining kamida bitta xavf omili 70 foiz bolalarda, ikki va undan ortiq omillar esa 40 foizdan ortiqida aniqlanadi. Bolalarda semirish insulin sezuvchanligining pasayishi, II turdagi qandli diabet, uyquda nafas qisishi, bronxial astma, tayanch-harakat tizimi buzilishlari, Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari (lipidli gepatoz, xolesistolitiaz, reflyuks), hamda depressiya, o‘zini past baholash kabi ruhiy holatlar bilan kechadi. Metabolik sindrom rivojlanishining asosiy sababi insulin rezistentligi hisoblanadi.

Hatto bolalar va o‘smirlarda metabolizm disfunktsiyasi — ortiqcha vazn va semirish bilan namoyon bo‘ladigan holatlar — bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlar o‘tkazilganiga qaramay, pediatriya sohasida ushbu patologiyani aniqlashning yagona diagnostik standarti hanuz belgilab qo‘yilmagan. Shu bois ayrim manbalarda bolalar yoshida metabolik sindromni aniqlash masalasi ochiq qolayotgani qayd etiladi. Semirish rivojlanishidagi hal qiluvchi bosqichlar — hayotning dastlabki 12 oyi, 5–6 yosh va pubertat davri. Ushbu patologiyani orttirgan shaxslarning taxminan 30–50 foizi uni deyarli butun umr davomida saqlab qoladi. Bolalar uchun metabolik sindrom tasniflarining katta qismi kattalar uchun mo‘ljallangan tasniflarga tayanadi, biroq ko‘rsatkichlar metabolizmning yoshga xos xususiyatlari hisobga olingan holda bolalik va o‘smirlik davriga moslashtirilgan. Bolalar va o‘smirlar uchun yagona tasnif yo‘qligi sababli, amaldagi me’yorlar ma’lum darajada bir-biridan sezilarli farq qiladi.

Metabolik sindrom klinik va biokimyoviy mezonlar majmui bo‘lgani uchun, ilmiy hamjamiyat sindromning alohida tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatishni taklif

etadi.

Metabolik sindrom yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatkichlardan kamida uchasi mavjud bo'lganda tashhislanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, metabolik sindromni tashkil etuvchi besh omildan har biri yurak ishemik kasalligi rivojlanishi uchun xavf omilidir. Mazkur besh omilning har biri uchun bolalar yoshida alohida diagnostika usullari ishlab chiqilgan. IDF mutaxassislari metabolik sindromni bolalarda 10 yoshdan boshlab quyidagi mezonlar bo'yicha aniqlashni taklif etgan: patologik ortiqcha vazn, trigliseridlar miqdorining yuqoriligi, yuqori zichlikdagi lipoproteidlar (YZLP) darajasining patologik pastligi, arterial gipertoniya (AG), qondagi glyukoza konsentratsiyasi. Qorin (abdominal) sohasida ortiqcha vazn 6–15 yoshdagi bolalar va o'smirlarda bel aylanasi 90-protsentildan yuqori bo'lishi bilan belgilanadi. Yoshi 16 dan oshgan shaxslarda esa kattalar uchun qabul qilingan mezonlar qo'llanadi.

1.2. Bolalarda bronxial astma fonida semirishning tarqalishi va xavf omillari

Patologik ortiqcha tana vazni sababli bronxial astma kechishini belgilovchi bir nechta tizimlar ta'riflanadi: ikki va undan ortiq hamroh patologiyalar mavjudligi (oshqozon tarkibining qizilo'ngachga qaytishi — refluks, uyqu vaqtida nafasning to'xtashi — apnoye); adipoz sababli yuzaga keluvchi tizimli yallig'lanish (quyidagi sitokinlarning yuqori konsentratsiyasi: IL-6, TNF- α), oksidlovchi stress; adipoz gormonlari — leptin, adiponektin, rezistin — o'zaro bir-birining salbiy ta'sirini kuchaytirishi.

Ontogenezning dastlabki bosqichlarida vazn oshishi masalasida shuni aniqlashgan: tug'ruq paytidagi tana vazni keyinchalik vazn yig'ish qobiliyatini belgilamaydi va bu, o'z navbatida, bronxial astma rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Ba'zi ilmiy ishlar vazn yig'ilishi tug'ma vazndan qat'i nazar yuz berishini, chunki u kattalardagi patologik vazn yig'ilishi takrorlashini ko'rsatadi. Shu bilan birga, homila ichidagi davrda bolaning vazni ortishi va uning bronxial astma hamda gipersezuvchanlikka asoslangan turli patologiyalar rivojlanish ehtimoliga ta'siri hozircha kam o'rganilganicha qolmoqda. Atopik

dermatit bronxial astma bilan birga kechgan 110 nafar bolani tekshirgan tadqiqotda, har birida erta hayot davrida ortiqcha vazn va me'yoriy qiymatlarga nisbatan past bo'y ko'rsatkichlari qayd etilgan.

Tashqi nafasning mexanik cheklanishlari ta'sirini hisobga olib, visseral turdagi abdominal semirish o'pkaning qoldiq hajmi va umumiy hayotiy sig'imining kamayishiga olib keladi. Abdominal ortiqcha vazn oshgani sayin birinchi soniyadagi tezlashgan nafas chiqarish hajmi (TNCHH1) tobora ko'proq cheklanadi — bu patologik vaznli shaxslarda nafas funksiyasining cheklanishidan dalolat beradi. Diafragma harakatchanligining kamayishi va respirator hajmning qisqarishi adekvat ventilyatsiyani pasaytiradi; natijada bronx silliq mushaklari qisqaradi, nafas yo'llarining kalibri va diametri kichrayadi. Ko'krak qafasidagi gipodinamiyani yengish uchun katta energiya sarfi talab qilinadi; buning oqibatida nafas tezlashadi, charchash va nafas mushaklarining zaiflashuvi rivojlanadi hamda hansirash kuzatiladi. Tana vazni indeksi (TVI) bronxial astmaning og'irlashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadi; bolaning umumiy vazni kamaytirilganda esa respirator klinika yaxshilanadi, TNCHH1 ortadi, zo'rayishlar soni kamayadi, per os kortikosteroidlarga ehtiyoj pasayadi va, tabiiyki, hayot sifati yaxshilanadi.

L.Barclay va hammualliflar tomonidan olib borilgan kesishma turdagi tadqiqotlarda bronxial astma semirish bilan birgalikda kechgan hollarda kasalxonaga yotqizilish darajasi bronxial astma yakka holatda kechganiga nisbatan 5 baravar yuqori ekani amalda isbotlangan. M.M. Abelevich va hammualliflar ma'lumotlariga ko'ra, bronxial astmaga chalingan bemorlarda adipoz mavjud bo'lganda kasallikning asoratlari yanada og'ir kechgan, kasalxonaga yotqizilish ko'rsatkichlari va sog'liqni saqlash xarajatlari yuqori bo'lgan. Patologik ortiqcha vazn bronxial astma kechishida nafas yo'llaridagi yallig'lanish jarayonlariga katta ta'sir ko'rsatadi, shu bilan birga ortiqcha vaznning yo'qligi bronxial astma kechishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Patologik ortiqcha vazn va u bilan bog'liq kasalliklarning tibbiy-ijtimoiy ahamiyati yuqori bo'lib, ular ko'pincha bolalik davrida boshlanadi va butun hayot davomida saqlanib qoladi. Bu holat ushbu mavzuning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ortiqcha tana vazni oziqlanish omillari bilan bog'liq patologiyalar orasida yetakchi o'rinni egallaydi, bu esa uni "sivilizatsiya kasalligi" maqomiga olib kelgan. Bunga

sabab — jamiyatda keng tarqalgan yuqori uglevodli va yog‘li taomlar, shakar miqdori yuqori mahsulotlar, jismoniy faollikning kamayishi, kun tartibining buzilishi hamda ortiqcha zararli ovqat iste‘moli hisoblanadi. Bolalik davrida adipoz mavjud bo‘lgan shaxslarda kasallanish darajasi ortadi va ayrim infeksiya kasalliklarga qarshi himoya mexanizmlari susayadi. Bundan tashqari, bunday bolalarda surunkali kasalliklarning erta rivojlanish xavfi yuqori bo‘lib, erta nogironlik holatlari ham ko‘payadi. Semirish holatlari soni ortishi bilan bir qatorda, 2-tip qandli diabet, arterial gipertenziya, yurak ishemik kasalligi, qon tomir devorlarida xolesterin to‘planishi va hatto yomon sifatli o‘smalar (saraton) kabi patologiyalar soni ham ko‘paymoqda. Dunyo bo‘yicha har yili patologik tana vazni bilan bog‘liq holatlar fonida 2,5 milliondan ortiq o‘lim holatlari qayd etiladi.

Bolalik davridagi adipoz odatda butun umr davomida saqlanib qoladi va yillar o‘tishi bilan yanada og‘irlashib, erta o‘lim xavfini oshiradi. Shuningdek, bolalik davridagi adipoz bilan bog‘liq asoratlar soni ham yuqori. Eng ko‘p uchraydigan asoratlar — arterial gipertenziya, spirtli ichimlikka bog‘liq bo‘lmagan jigar yog‘ bosishi kasalligi hamda uyqudagi nafas to‘xtash sindromi (apnoe) bo‘lib, ular maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda ham kuzatiladi.

Mazkur patologiya keng tarqalish sabablari barcha mamlakatlarda bir xil: yuqori yog‘li va shakarli mahsulotlarni haddan tashqari ko‘p iste‘mol qilish, jismoniy faollikning yetishmasligi, noto‘g‘ri ovqatlanish madaniyati va boshqalar. Biroq yurak-qon tomir tizimi patologiyalariga olib keluvchi ushbu sabablardan tashqari, olimlar semirishning yashirin omillarini ham aniqlashgan — ular bevosita homiladorlik va chaqaloqlik davrlari bilan bog‘liq. Bu o‘zaro bog‘liqlik metabolik sindrom orqali yuzaga chiqadi. Homiladorlikdan oldin yoki homiladorlik davrida onada adipoz mavjud bo‘lishi homilada patologik tana vazni rivojlanish xavfini oshiradi. Aniqlanishicha, ona homiladorlik davrida allergik mahsulotlarni me‘yordan ortiq iste‘mol qilgan bo‘lsa, bu holat bolaning butun keyingi hayotida salbiy ta‘sirini davom ettiradi. Shuningdek, nafaqat ortiqcha, balki onaning vazn yetishmovchiligi ham bola uchun adipoz rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu hodisa homilada yuz beruvchi metabolik o‘zgarishlar tufayli shakllanadi va butun umr davomida saqlanib qoladi. Bugungi kunda adipoz doimiy yallig‘lanish xarakteriga ega kasallik sifatida qaraladi. Bunday ta‘rif yallig‘lanish sitokinlari

kontsentratsiyasining oshishi hamda yallig'lanish jarayonlari ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishiga asoslanadi.

1.3. Bolalarda bronxial astma va semirishda vitamin D ning ahamiyati hamda davolash-profilaktik choralari.

Individual rivojlanish davrida erta bolalik yillarida oziq-ovqat tarkibida yuqori miqdorda ozuqa moddalari mavjud bo'lishi metabolik o'zgarishlarga olib keladi, natijada adipoz va unga hamroh komorbid patologiyalar rivojlanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hayotning dastlabki 12 oyida bolalarning ovqatida oqsil miqdorining ortiqqligi tana vaznining tez o'sishiga, shuningdek bolalik davrida semirish, metabolik sindrom, yurak-qon tomir tizimi kasalliklari va qandli diabet rivojlanishiga moyillikni kuchaytiradi.

Hozirgi kunga kelib vitamin D3 ning turli tizimlar va a'zolarga ta'sirini o'rganishga katta e'tibor qaratilgan. Vitamin D3 ning nafas olish tizimiga foydali ta'siri isbotlangan.

Vitamin D organizmda nafaqat ozuqa modda (nutrient), balki gormon sifatida ham muhim himoya-regulyator funksiyani bajaradi. Vitamin D yetishmovchiligi global muammo bo'lib, so'nggi yillarda uning bronxial astma rivojlanishiga ta'siri aniqlangan.

Aberdin va Boston shaharlarida o'tkazilgan ikki ko'p yillik kohort tadqiqotida homiladorlik davrida vitamin D qabul qilish 3–5 yoshdagi bolalarda nafas tizimi bilan bog'liq patologiyalar uchrash chastotasini kamaytirgani aniqlangan. Ba'zi tadqiqotlarda bronxial astma va atopiya bilan onaning homiladorlik paytidagi oziqlanishi, xususan, omega-3 yog kislotalari (baliq yog'i)ni iste'mol qilishi o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan, biroq bu ma'lumotlar ko'p hollarda 5–20 yil avvalgi ratsion haqidagi esdaliklarga tayanadi. Bronxial astma rivojlanishiga sabab bo'luvchi ayrim ozuqa moddalari patologik vazn ortishiga ham olib keladi. O'pka to'qimalariga semirishning ta'siri mexanizmlari turlicha bo'lib, ularga metabolik jarayonlarning o'zgarishi, adipokinlar faolligining ortishi va o'pka to'qimalariga mexanik bosim kiradi. Ko'pchilik tadqiqotlar

natijalariga ko'ra, semirish mavjud bo'lgan bolalar va kattalarda E va S vitaminlari darajasi past, antioksidantlar, karotinoidlar va selen miqdori kamaygan bo'ladi.

Bunday holat ozuqa moddalarning yetarli miqdorda qabul qilinmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ammo shu bilan birga, umumiy va mahalliy oksidlovchi stress bilan ham bog'liq. Bu jarayon adipoz to'qimasida oksidlanish reaksiyalarining kuchayishiga va ozuqa parchalanish mahsulotlarining ortiqcha oksidlanishiga olib keladi.

Shuningdek, patologik ortiqcha vazn mavjud bo'lganda organizmdagi vitamin D konsentratsiyasi pasayishi isbotlangan. Umuman olganda, semirish va bronxial astma o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud degan taxmin ilgari surilgan. Bu bog'liqlik noto'g'ri ovqatlanish bilan kechgan perinatal davr natijasida yuzaga kelib, natijada ikkala patologiya bir vaqtning o'zida rivojlanadi. Biroq, oziqlanish orqali bronxial astma va semirish rivojlanish zanjiri turlicha. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, antioksidantlar, yog' kislotalari va vitamin D kabi maxsus ozuqa moddalari bronxial astma va allergik patologiyalarga ta'sir ko'rsatib, respirator tizim rivojlanishida himoya mexanizmlarining reaksiyasini ishga tushiradi.

Vitamin D ning bolalarda adipoz va bronxial astma rivojlanishi hamda kechishiga ta'siri zamonaviy tibbiyotda dolzarb, ammo kam o'rganilgan masala bo'lib, bu borada ilmiy doiralarda turli fikrlar mavjud. Tadqiqotlarda qo'lga kiritilgan natijalar, asosan, ota-onalarning so'zlariga asoslangan bo'lib, ular har doim ham ishonchli emas. Bolaning ovqatlanish turi bronxial astma va semirish rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi, ayniqsa u metabolik dasturlanish jarayoniga ta'sir etib, hayotning dastlabki oylarida bola rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, shakar va sut mahsulotlari yuqori bo'lgan ratsion astma xavfini oshiradi (qonda IL-17F sitokini konsentratsiyasi ortishi bilan), aksincha, sabzavot va don mahsulotlarini iste'mol qilish astma rivojlanish ehtimolini kamaytiradi.

Oziq-ovqat tarkibining bronxial astma va adipoz (semirish) rivojlanishidagi o'рни katta ahamiyatga ega. Issiqlik bilan pishirish jarayonlarida hosil bo'ladigan kechki glikozillanish mahsulotlari almashinuv jarayonlariga ta'sir qilib, organizmning himoya mexanizmlarini o'zgartirishi mumkin. Bu jarayonlarda

asosiy omil ovqat bilan qabul qilinayotgan mahsulot hajmi hisoblanadi. Bronxial astma mavjud hollarda yogʻlarning ortiqcha miqdori respirator yoʻllarda neyrofil yalligʻlanish jarayonlarini rivojlantiradi va shu bilan birga, bronxlarni kengaytiruvchi preparatlarning samaradorligini kamaytiradi. Vitamin D kontsentratsiyasining pasayishi bronxial astma bilan bir qatorda patologik ortiqcha tana vazni rivojlanishiga ham olib kelishi mumkin. L.A. Lautenbacher va hammualliflar tadqiqotlariga koʻra, vitamin D tanqisligi bolalik yoshidagi astma va adipoz bilan ogʻrigan shaxslarda nafas tizimi koʻrsatkichlarining pasayishi bilan bogʻliq, biroq tana vazni indeksi (TVI) meʼyorida boʻlgan bolalarda bu holat kuzatilmagan.

Shuningdek, omega-3 yogʻ kislotalarining himoya xususiyatlari aniqlangan boʻlib, ular organizmning himoya mexanizmlarini ragʻbatlantiruvchi taʼsiri tufayli bronxial astma rivojlanishiga qarshi foydali taʼsir koʻrsatadi.

Metabolik sindrom rivojlanishida yogʻ toʻqimasining taqsimlanish turi alohida ahamiyatga ega. Koʻplab olimlar asosiy patogen mexanizm sifatida visseral (ichki aʼzolar atrofidagi) adipozni koʻrsatishadi. Ushbu toʻqima endokrin va parakrin faoliyatga ega ekani ham ilmiy jihatdan isbotlangan. Bronxial astma barcha almashinuv jarayonlariga, jumladan lipid almashinuviga ham taʼsir etuvchi kasallikdir. Yogʻlar organizm hujayra va toʻqimalarining ajralmas tarkibiy qismi boʻlib, ular fiziologik moslashuv va nazorat jarayonlarida, ayniqsa stressli holatlarda muhim rol oʻynaydi. Yogʻlar tashilishini lipoproteidlar (LP) amalga oshiradi, ular yogʻalmashinuvi jarayonining asosiy komponentidir. Past zichlikdagi lipoproteidlar (PZLP) xolesterinni qon tomirlari orqali saqlanadigan yoki parchalanadigan joylarga tashiydi.

Yuqori zichlikdagi lipoproteidlar (YZLP) esa periferik toʻqimalarda ortiqcha xolesterinni ushlab olib, uni qayta ishlaniishi uchun jigar orqali oʻt kislotalariga aylantiradi va organizmdan chiqaradi. Yogʻlar transporti limfotsitlar tizimining koʻpayishi va taqsimlanishida muhim rol oʻynaydi, chunki ular xolesterin va yogʻ kislotalarining manbai hisoblanadi. T-helper va B-limfotsitlar, shuningdek, virusli kasalliklarga (masalan, qizamiq, qizilcha, sitomegalovirus) qarshi antitanalar miqdori toʻliq qon zardobidagi xolesterin kontsentratsiyasiga bogʻliq ekani

aniqlangan. Turli ilmiy izlanishlar natijasida yuqori va past xolesterin darajalarida organizmning himoya mexanizmlari o'rtasida farq mavjudligi isbotlangan. G.I.

Yupatov va hammualliflar (2002) tadqiqotlarida umumiy xolesterin (UX) va past zichlikdagi lipoproteidlar (PZLP) darajasining ortishi bilan T-limfotsitlar va T-helperlar sonining ko'paygani, ammo fagotsitoz (immun yutish) faolligining biroz pasaygani qayd etilgan. Lipoproteidlar himoya mexanizmlarini nazorat qilish, immun hujayralar almashinuvini ta'minlash va antigenlarga bog'liq bo'lmagan patogenlarga qarshi rezistentlikni shakllantirishda ishtirok etadi. Adipozda lipid kontsentratsiyasi oshgan hollarda yuqoridagi dalillar bronxial astma va semirish o'rtasidagi sinergik (o'zaro kuchaytiruvchi) bog'liqlik nazariyasini asoslab beradi. Shuningdek, bronxial astma uglevod almashinuviga ham ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli, bronxial astma bilan og'rgan bemorlarda insulin rezistentligi (insulinga nisbatan sezuvchanlikning pasayishi) masalasi hali yetarlicha o'rganilmagan, mavjud tadqiqotlar esa qarama-qarshi natijalar bergan. T.S. Vasilyeva (2013) tadqiqotlarida bronxial astma bilan og'rgan bemorlarda insulin sekretsiyasi ba'zan pasaygan ($1,6 \pm 0,4 \mu\text{ED/ml}$ gacha), ba'zan esa ortgan ($48,5 \pm 5,7 \mu\text{ED/ml}$ gacha) holatlar qayd etilgan. Lucas S.R. (2015) tadqiqotida past nafas funksiyasi ko'rsatkichlari insulinga nisbatan sezuvchanlikning pasayishiga va natijada 2-tip qandli diabet rivojlanishiga olib kelishi mumkinligi aytilgan.

Uglevod almashinuvining buzilishi β -hujayralarning disfunktsiyasi bilan izohlanadi, bu esa ko'pincha glyukokortikoid preparatlar bilan davolangan bemorlarda kuzatiladi. Adipoz yoki metabolik sindrom (MS) respirator tizim faoliyatida buzilishlarga olib keladi.

D.A. Beuther asarlarida yuqori tana vazniko'rsatkichlari nafas tizimi patologiyalarining rivojlanishi va kechishiga salbiy ta'sir etib, hayot sifatining pasayishiga olib kelishi tasdiqlangan. L. Barclay va hammualliflar tadqiqotlarida esa adipoz bronxial astma bilan birgalikda kechganda kasalxonaga yotqizilish holatlari normal TVI ga ega bemorlarga nisbatan 5 baravar yuqori ekani ko'rsatilgan. P. Saint-Pierre tadqiqotlari semirish mavjud shaxslarda og'ir bronxial astma shakllari tez-tez uchrashini ta'kidlaydi. TVI me'yorda bo'lishi bronxial astma kechishining yengilligi bilan bog'liq; shuningdek, tana vaznining kamayishi TNCHH1 (birinchi siniyadagi tezlashgan nafas hajmi) ko'rsatkichining oshishiga,

kasallik qaytalanishlar chastotasining kamayishiga, per os kortikosteroidlarga ehtiyojning pasayishiga va hayot sifatining yaxshilanishiga olib keladi. Ayrim ishlar esa tana vaznining kamayishi bilan birga kortikosteroidlar va β_2 -agonistlar samaradorligining pasayishini ko'rsatadi; bu holatlar bronxial astma va adipozning birgalikdagi ta'siri bilan izohlanadi. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, tana vaznining kamaytirilishi astma davosida ijobiy natijalar beradi. National Heart, Lung, and Blood Institute instituti protokollarida qayd etilishicha, ortiqcha vazn fonida kechuvchi bronxial astma holatlarida tana vaznini kamaytirish davolash samaradorligini oshiradi. Shu sababli, TVI nazorati bronxial astma bilan og'rigan bolalarni kuzatishda majburiy hisoblanadi. Bundan tashqari, bronxial astma va adipoz birgalikda kechgan hollarda bariatrik jarrohlik aralashuvini qo'llash ham ko'rsatma hisoblanadi. M. Peters-Golden va hammualliflar o'tkazgan tadqiqotlarda montelukast va beklometazon preparatlari bilan davolash natijalari TVI ko'rsatkichlariga qarab farq qilgani aniqlangan. Bu esa kortikosteroidlarga nisbatan sezuvchanlikning pasayishi va IL (interleykinlar) faoliyatining TVI darajasiga bog'liq turlicha yallig'lanish reaksiyalari bilan tushuntiriladi.

Bob bo'yicha hulosa

Hulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, bronxial astma va semirish surunkali yallig'lanish jarayonining o'zaro bog'liq shakllaridir. Bronxial astmada yallig'lanish asosan nafas tizimida lokalizatsiyalansa, semirishda u butun organizm tizimlariga tarqaladi. Bu yallig'lanish jarayoni lipiddan boy yallig'langan to'qimalarning hajmi, tug'ma va adaptiv immun javobni jalb etish orqali yanada kuchayadi. Bolalik davridagi bronxial astma rivojlanishida gipersensitiv yallig'lanish darajasi va bronxlarning reaktivligi to'qimalardagi lipid miqdori va ularning yallig'lanish holatiga bevosita bog'liqdir.

Adipoz mavjud bo'lgan bolalarda bronxial astma rivojlanish xavfi yuqori. Hatto ozgina ortiqcha vazn ham kasallik xavfini oshiradi, bu esa "bronxial astma–semirish" fenotipi uchun maxsus terapevtik yondashuv ishlab chiqishni zarur qiladi.

Noto'g'ri ovqatlanish va gipodinamiyalar semirishning asosiy sabablari bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, uglevodlar, yog'lar va vitamin D3 ning bu jarayonlardagi aniq o'рни hali to'liq o'rganilmagan. Kasalliklarning murakkab kechishi va davolashdagi qiyinchiliklar erta tashxis va samarali davolash usullarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Profilaktika nuqtai nazaridan semirishning oldini olish uchun kompleks yondashuv zarur: homiladorlik davrini to'g'ri boshqarish, chaqaloqni me'yorida emizish, 12 oydan katta bolalar uchun to'g'ri vazn jadvalini yuritish. Eng muhim omillardan biriota-onalar, shifokorlar va hamshiralar o'rtasida bolalar ovqatlanishi madaniyati bo'yicha yetarli bilim va ongni shakllantirishdir. Shu sababli, ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish zarur. Aynan mana shu omillar ushbu monografiyani yozish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

II bob. Bolalarda semizlik bilan kechuvchi bronxial astmaning uchrash chastotasi va klinik xususiyatlari

Biz tomonidan 2015–2019 yillar davomida Andijon shahar bolalar shifoxonasi, Andijon tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi, shuningdek RIPIATM Pediatriya institutining pulmonologiya va allergologiya bo'limlarida davolangan bolalarning kasallik tarixlari asosida retrospektiv tahlil o'tkazildi.

D vitamini yetishmovchiligi bo‘lgan bolalarda esa barcha SHT ko‘rsatkichlarining bir maromda kamayishi, ya’ni umumiy (total) obstruksiya mavjudligini ko‘rsatdi. Spirometrik tekshiruvlarda hajmiy hamda tezlik ko‘rsatkichlari pasayganligi aniqlandi. D vitamini darajasining o‘pka ventilyatsiyasi ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish uchun BA + S guruhidagi bolalarda D vitamini kontsentratsiyasiga qarab spirometriya natijalari taqqoslandi. Bolalar ikki kichik guruhga bo‘lindi: 20 nafar bola — D vitamini yetishmovchiligi bilan, 30 nafar bola — D vitamini tanqisligi bilan (2.4.4-jadval).

Jadval 2.4.4

Qon zardobidagi D vitamini miqdoriga qarab BA +S bo‘lgan bolalarda spirometriya nisbiy ko‘rsatkichlarining taqqoslovchi tahlili (% me’yordan)

Ko‘rsatkich	D vitamini > 20 ng/ml (n=20)	D vitamini < 20 ng/ml (n=30)	Guruhlar orasidagi farq (p)
O‘FHH	71,6 ± 2,6	71,1 ± 2,56	< 0,01
TNCHH1	61,4 ± 3,03	50,4 ± 2,95	< 0,001
TNCHH1/O‘HH (Tiffno indeksi)	75,1 ± 2,06	66,1 ± 2,11	< 0,001
SHT 25	64,6 ± 1,98	53,6 ± 1,97	< 0,01
SHT 50	54,8 ± 2,25	43,8 ± 2,34	< 0,001
SHT 75	70,3 ± 2,58	61,4 ± 2,06	< 0,01

D vitamini tanqisligi bo‘lgan boshqaguruhdagi bolalarda o‘zgarishlar D vitamini yetishmovchiligiga ega bolalarga qaraganda yanada chuqurroq bo‘lib, eng og‘ir buzilishlar BA +S va D vitamini tanqisligi mavjud bo‘lgan bolalarda kuzatildi (O‘FHH = 71,1 ± 2,56; TNCHH1 = 50,4 ± 2,95; Tiffno indeksi = 66,1 ± 2,11; SHT

$25 = 53,6 \pm 1,97$; $SHT\ 50 = 43,8 \pm 2,34$; $SHT\ 75 = 61,4 \pm 2,06$), bu me'yordan 20% dan ortiq og'ish bilan tavsiflanadi.

Bronxial astma kuchaygan davrlarida yengil obstruktiv turdagi TFN buzilishlari kuzatildi. BA va D vitamini tanqisligi mavjud bolalarda kombinatsiyalashgan turdagi buzilishlar aniqlandi — TNCHH1 va tezlik ko'rsatkichlarining kamayishi bilan birga O 'HH ko'rsatkichlarining sezilarli pasayishi kuzatildi.

II Bob bo'yicha xulosa

Yig'ma tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki: Bronxial astma va S ning qo'shma kechishida klinik belgilarning og'irroq bo'lishi kuzatiladi — nafas qisilishi, nam yo'tal, o'pka va perioral xirillashlarning davomiyligi ortadi.

Semizlik rivojlanish xavfini oshiruvchi omillar: homiladorlik patologiyalari va gestozlar, bolani erta sun'iy yoki aralash oziqlantirishga o'tkazish, peri va ntrnatal davrning og'ir kechishi, og'ir premorbid fon. Uglevod va lipid almashinuvining buzilishlari (YZLP darajasining pasayishi, TG va glikozilangan gemoglobin darajasining ortishi, glyukozaga tolerantlikning o'zgarishi) aterogenez va insulinrezistentlik rivojlanish yo'nalishini tasdiqlaydi. D vitamini tanqisligi bo'lgan BA +S olalarda proksimal obstruksiya turi ustunlik qiladi; vitamin D yetishmovchiligi bo'lganlarda esa umumiy obstruksiya turi kuzatiladi. Spirometriya natijalari hajmiy hamda tezlik ko'rsatkichlarining pasayganini ko'rsatdi. Demak, D vitamini yetishmovchiligi BA +semizlik kechishini og'irlashtiradi, bu spirometrik ma'lumotlar bilan tasdiqlangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, BA +S + D vitamini tanqisligi bo'lgan bolalarda o'pka mexanikasi o'zgaradi, nafas harakatlari va O 'HH kamayadi, havo yo'llaridagi yallig'lanish esa TNCHH1 ni pasaytiradi.

Shunday qilib, D vitamini yetishmovchiligi semizlik va bronxial astma kechishini og'irlashtiruvchi muhim omil hisoblanadi. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, BA +S bo'lgan bolalarda D vitamini preparatlarini profilaktik qo'llash ushbu kasallikni oldini olishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

III BOB. SEMIZLIK BILAN BRONXIAL ASTMA BIRGA KECHGAN BEMORLARDA KOMPLEKS PROFILAKTIK CHORATADBIRLARNING SAMARADORLIGI

Dinamik kuzatuv jarayonida semizlik bilan kechuvchi bronxial astma (BA) tashxisi qo'yilgan 130 nafar bola orasidan 37 nafari semizlikning profilaktikasi bo'yicha tavsiyalarga rioya qilmagan bo'lib, ular 1-guruhni tashkil etdi (BAning standart davolash usuli). 45 nafar bola faqat semizlikni dori vositalarisiz davolash bo'yicha tavsiyalarga amal qilgan (2-guruh – BA + semizlikni dori vositalarisiz davolash). 48 nafar bola esa BA bilan semizlikni davolash bo'yicha kompleks tavsiyalarga amal qilgan (3-guruh – BA + semizlikni dori vositalarisiz davolash va D vitamini qo'llash).

Bronxial astmani standart davolashda quyidagi dori vositalari buyurilgan: β 2-adrenomimetiklar, xolinolitiklar, membranani barqarorlashtiruvchi preparatlar, antigistaminlar va mukolitiklar.

Dori vositalarisiz davolash choralari sog'lom turmush tarziga oid tavsiyalarni o'z ichiga olgan bo'lib, bemorlarga bosma shaklda ma'lumotnoma materiallari berilgan. Ratsionning kaloriyaviy qiymati yosh va jins xususiyatlariga qarab individual hisoblab chiqilgan; yog' miqdori sutkalik kaloriyaning 30 foizidan oshmagan, shuningdek, oson hazm bo'ladigan uglevodlar miqdori cheklangan. Ratsion quyidagi mahsulotlardan tashkil etilgan: tovuq go'shti, mol go'shti, kurka, yog'siz baliq navlari, 5% yog'lilikdagi tvorog, 2,5% yog'lilikdagi sut, 1% yog'lilikdagi kefir, mevalar (ayniqsa olmalar), sabzavotlar (kartoshkadan tashqari), don mahsulotlari (jumladan bo'tqalar), yog'siz bulon va sho'rvalar. Bundan tashqari, har oyda to'g'ri ovqatlanish va jismoniy faollikni oshirish bo'yicha suhatlar o'tkazilgan hamda antropometrik o'lchovlar bajarilgan. Natijalar 3, 6 va 12 oylik muddatlardan keyin baholangan.

Gipovitaminoz D ni tuzatish samaradorligini baholash maqsadida suvda eruvchan xolekaltsiferolning davolovchi dozasi qo'llangan. Tadqiqot doirasida o'rganilgan bolalarning faqat chorak qismida D vitamini yetarlilik darajasi optimal holatda aniqlangan — 6 (9,6%). 42 (64,0%) bolada D vitamini tanqisligi, 17 (26,4%) bolada esa yetishmovchiligi qayd etilgan. Boshlang'ich kalsidiol darajasi 23,9 [17,2–30,6] ng/ml ni, o'rtacha miqdori esa $26,6 \pm 1,2$ ng/ml ni tashkil etgan.

2-bobda keltirilganidek, xolekaltsiferolning dozasi davolash kursi davomida differensial tarzda belgilangan va D vitamini dastlabki holatiga bog‘liq holda aniqlangan. Bemorlar bazis terapiya (BT) fonida xolekaltsiferol (Aquadetrim, Medana Pharma S.A., Polsha) preparatini qabul qilgan. Qon zardobidagi D vitamini miqdoriga qarab quyidagi dozalar buyurilgan: D vitamini 20–30 ng/ml bo‘lganda — 2000 XB kuniga bir marta, 1 oy davomida; 10–20 ng/ml bo‘lganda — 3000 XB kuniga bir marta, 1 oy davomida; 10 ng/ml dan kam bo‘lganda — 4000 XB kuniga bir marta, 1 oy davomida. Davolash kursi yakunlangach, bemorlar 1500 XB miqdoridagi profilaktik dozaga o‘tkazilgan.

Kuzatuv (katamnestic) nazorat 3, 6 va 12 oylik muddatlarda o‘tkazilgan. U uzoq muddatli natijalarni baholash, sog‘liq holatini kuzatish, kasalliklar chastotasini va ularning asoratlari aniqlashni o‘z ichiga olgan.

3.1. Semizlik bilan kechuvchi bronxial astmali bolalarda kompleks differensial terapiyaning klinik-biokimyoviy ko‘rsatkichlarga ta’siri

Semizlik bilan kechuvchi bronxial astmali bemorlarda profilaktikaning klinik samaradorligi 3.1.1-jadvalda keltirilgan. Semizlik bilan kechuvchi BA bo‘lgan bolalarda D vitamini va dori vositalarisiz davolashni o‘z ichiga olgan kompleks terapiya (3-guruh) natijasida bo‘g‘ilish xurujlari davomiyligi $4,9 \pm 0,2$ kungacha qisqargan (2-guruh bilan solishtirganda $4,1 \pm 0,2$ kun; $P < 0,05$). Nafas qisilishi davomiyligi $4,7 \pm 0,2$ kun (2-guruhda $5,6 \pm 0,2$ kun; $P < 0,05$), nam yo‘tal $8,1 \pm 0,3$ kun (2-guruhda $9,4 \pm 0,2$ kun; $P > 0,05$), og‘iz orqali xirillash $4,6 \pm 0,3$ kun (2-guruhda $5,8 \pm 0,1$ kun; $P > 0,05$), bosh og‘rig‘i $4,6 \pm 0,3$ kun (2-guruhda $5,8 \pm 0,2$ kun; $P < 0,01$), terlash $5,5 \pm 0,3$ kun (2-guruhda $6,4 \pm 0,3$ kun; $P > 0,05$), o‘pka ichidagi nam xirillash $5,5 \pm 0,3$ kun (2-guruhda $6,4 \pm 0,2$ kun; $P > 0,05$), quruq xirillash $5,2 \pm 0,3$ kun (2-guruhda $6,1 \pm 0,2$ kun; $P > 0,05$), holsizlik $4,2 \pm 0,2$ kun (2-guruhda $4,9 \pm 0,2$ kun; $P > 0,05$), ishtahaning pasayishi $4,5 \pm 0,3$ kun (2-guruhda $5,6 \pm 0,3$ kun; $P < 0,001$) ni tashkil etgan. Shuni ta’kidlash kerakki, faqat bazis terapiya olgan BA bilan og‘rigan bolalarda klinik simptomlarda ishonchli farqlar aniqlanmagan.

3.1.1-jadval

Semizlik bilan kechuvchi bronxial astmali bemorlarda asosiy klinik simptomlarning davomiyligi ($M \pm m$)

Klinik simptomlar (kunlarda)	1-guruh (n=37)	2-guruh (n=45)	3-guruh (n=48)
Bosh og‘rishi	$6,6 \pm 0,2$	$5,8 \pm 0,2$	$4,6 \pm 0,3$ ***^^
Terlash	$7,3 \pm 0,2$	$6,4 \pm 0,2$ *	$5,5 \pm 0,3$ ***
Holsizlik	$5,7 \pm 0,3$	$4,9 \pm 0,2$	$4,2 \pm 0,2$
Ishtahaning pasayishi	$7,0 \pm 0,2$	$6,2 \pm 0,3$	$4,5 \pm 0,3$ ***^^^
Nafas qisilishi	$6,3 \pm 0,2$	$5,6 \pm 0,2$ *	$4,7 \pm 0,2$ ***^
Bo‘g‘ilish xurujlari	$6,9 \pm 0,2$	$4,9 \pm 0,2$	$4,1 \pm 0,2$ ***^
Nam yo‘tal	$10,2 \pm 0,4$	$9,4 \pm 0,2$	$8,1 \pm 0,3$ **
Peroral xirillash	$6,3 \pm 0,1$	$5,8 \pm 0,2$	$4,6 \pm 0,3$ **
Quruq xirillash	$7,5 \pm 0,2$	$6,1 \pm 0,2$ *	$5,2 \pm 0,3$ **
Nam xirillash	$7,6 \pm 0,2$	$6,4 \pm 0,2$	$5,5 \pm 0,3$

Izoh:

* – 1-guruh ko‘rsatkichlariga nisbatan ishonchli farq (* – $P < 0,05$; ** – $P < 0,01$; *** – $P < 0,001$)

^ – 2-guruh ko‘rsatkichlariga nisbatan ishonchli farq (^ – $P < 0,05$; ^^ – $P < 0,001$)

Rentgenogrammalarda bemorlarda o‘pkaning ikkala tomonida ham emfizematoz kengayish, qovurg‘alarning gorizontol holatda joylashuvi kuzatilgan. Bronxospazm aniq ifodalangan hollarda intoksikatsiya va nafas yetishmovchiligi simptomlari kuchaygan bo‘lib, bu kasallikning uzoq davom etuvchi klinik belgilari bilan namoyon bo‘lgan. I-guruh bemorlarining rentgenologik tadqiqotlarida bazis terapiyadan so‘ng o‘pka o‘zgarishlarining yaxshilanishi 13 (60,0%) nafar bolada qayd etilgan bo‘lsa, II va III guruhlarda bu ko‘rsatkich 26 (80,0%) ni tashkil etgan. Standart og‘ish (+) 2SO – (+) 3 SO oraliqdagi semizlik holati 17 (45,9%) nafar bronxial astma va semizlik bilan og‘rigan bolalarda aniqlangan. 12 (32,4%) nafar bolada esa tana massasi indeksi (BMI) yoshga nisbatan (+)3 SO dan yuqori bo‘lgan semizlik kuzatilgan.

Davolanishdan 12 oy o‘tib, II va III kuzatuv guruhlarida BMI ko‘rsatkichlarining ishonchli kamayishi qayd etilgan, I-guruhda esa bu ko‘rsatkichlar deyarli o‘zgarmagan (3.1.2-jadval). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, 12 oylik kuzatuvdan so‘ng II-guruh bolalarida tana vazni 1,5 marta kamaygan (14 bola – 31,1%). Eng samarali natija III-guruhda kuzatilgan bo‘lib, dori vositalarisiz terapiya va D vitamini qo‘llangan bemorlarda tana vazni 3,5 marta kamaygan (8 bola – 16,7%) va bu 1-guruhdagi 12 bola (31,3%) bilan solishtirganda sezilarli farqni tashkil etgan.

Semizlik bilan kechuvchi bronxial astmali bemorlarda antropometrik ko‘rsatkichlar dinamikasi (%)

Таблица 3.1.2

Standart og‘ishlar	0– (+)1SO		(+)1SO– (+)2SO		(+)2SO– (+)3SO		(+)3SO va undan yuqori	
	Oldin	Keyin	Oldin	Keyin	Oldin	Keyin	Oldin	Keyin
1-guruh (n=37)	0	0	7 (18,9)	9 (24,3)	17 (45,9)	15 (40,5)	13 (35,14)	13 (35,4)
2-guruh (n=45)	0	3 (6,7)	9 (20,0)	15 (33,3)	16 (35,56)	13 (28,9)	20 (44,4)	14 (31,1)
3-guruh (n=48)	0	8 (16,7)	9 (18,75)	15 (31,25)	16 (33,3)	18 (37,5)	23 (47,9)	7 (14,58)

Izoh: * – 1-guruh ma’lumotlariga nisbatan farqlar ishonchli (* – $P<0,05$; ** – $P<0,01$; *** – $P<0,001$); ^ – 2-guruh ma’lumotlariga nisbatan farqlar ishonchli (^ – $P<0,05$; ^^ – $P<0,001$).

Hurujdan keying davrida nafas chiqarishning eng yuqori tezligi (NCHEYT) ko‘rsatkichlarini baholashda, me’yoriy qiymatning 80 % idan yuqori bo‘lgan NCHEYT mos ravishda 50,0 % va 84,2 % holatlarda qayd etildi; me’yoriy qiymatning 80 % i dan past NCHEYT esa semizlik bilan kechuvchi bronxial astmali bolalar guruhida ishonchli darajada ko‘proq uchradi ($P<0,05$). Ma’lumki, bronxial astmaning og‘irligi nafaqat o‘rtacha bronxial obstruksiya darajasi, balki

24 soat ichida NCHEYT ning tebranishlari bilan ham aks etadi; NCHEYT ko'rsatkichlarining sutkalik 20 %dan ortiq o'zgarishi bronxial astma uchun diagnostik belgi hisoblanadi va og'irlik darajasi bilan to'g'ri proporsionaldir.

Dinamik kuzatuvda barcha davolovchi guruhlarda NCHEYT ko'rsatkichlarining me'yoriy qiymatlarga qaytishi kuzatildi. Uchinchi guruh bolalarida NCHEYT ko'rsatkichlarining boshlang'ich ma'lumotlarga nisbatan ishonchli yaxshilanishi ham qayd etildi (3.1.3-rasm).

3.1.3-jadval

Semizlik bilan kechuvchi bronxial astmali bolalarda pikfloumetriya ko'rsatkichlari (%)

Standart og'ishlar	NCHEYT> 80% me'yordan (yashil zona)		NCHEYT 60–80% me'yordan (sariq zona)		NCHEYT< 60% me'yordan (qizil zona)	
	Davolanish dan oldin	Davolanis hdan keyin	Davolanis hdan oldin	Davolanish dan keyin	Davolanish dan oldin	Davolanis hdan keyin
1- guruh (n=37)	0	4 (10,81%)	15 (40,54%)	20 (54,05%)	22 (59,46%)	13 (35,14%)
2- guruh (n=45)	0	16 (35,56%)	20 (44,44%)	21 (46,67%)	25 (55,56%)	8 (17,78%)
3- guruh (n=48)	0	28 (58,33%)	22 (45,83%)	18 (37,5%)	26 (54,17%)	2 (4,17%)

Izoh:

- 1-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar ishonchli (* – $P<0,05$; ** – $P<0,01$; *** – $P<0,001$);
- ^ – 2-guruh ma'lumotlariga nisbatan farqlar ishonchli (^ – $P<0,05$; ^^ – $P<0,001$).

Keyingi tadqiqot bosqichi — differensial davolashning spirometriya koʻrsatkichlariga taʼsirini tahlil qilish, yaʼni tadqiqot guruhlarida tashqi nafas olish funksiyasi (TNF) holatini baholashdan iborat edi. Dinamik baholash natijalariga koʻra, barcha davolovchi guruhlarda TNF koʻrsatkichlarining meʼyoriy qiymatlarga qaytishi kuzatildi. Uchinchi guruh bolalarida TNF koʻrsatkichlarining boshlangʻich maʼlumotlarga nisbatan ishonchli yaxshilanishi aniqlanib, bu differensial terapiyaning D vitamini bilan birga qoʻllanishi bronxoobstruksiya sabab boʻlmasdan, aksincha, TNF koʻrsatkichlarini yaxshilashini koʻrsatdi.

Semizlik bilan kechuvchi bronxial astmali bemorlarda differensial davolashning klinik samaradorligi tahlili 3.1.4-jadvalda keltirilgan.

Shunday qilib, differensial davolashni bronxial astmali bemorlarning anʼanaviy terapiyasi tarkibiga qoʻshish qonda D vitamini miqdorining normallashtiruviga olib keldi, bu esa patologik jarayon faoliyati klinik koʻrsatkichlariga, tashqi nafas olish funksiyasi va NChEYT koʻrsatkichlariga ijobiy taʼsir koʻrsatgan.

3.1.4-jadval

Semizlik bilan kechuvchi bronxial astmali bolalarda tashqi nafas olish funksiyasi (TNF) koʻrsatkichlarining dinamikasi ($M \pm m$)

Koʻrsatkichlar	Amalda sogʻlom bolalar (n=20)	Davolanishgacha (n=130)	I-guruh (n=37)	II-guruh (n=45)	III-guruh (n=48)	P	P ₁
OʻHH	83,05 ± 2,0	57,8 ± 0,81	69,9 ± 0,96	74,2 ± 1,61	77,6 ± 0,8	P > 0,05	P < 0,01
TNCHH₁	88,62 ± 1,7	48,4 ± 0,83	67,5 ± 1,04	76,4 ± 1,67	78,3 ± 1,06	P > 0,05	P < 0,01
TNCHH₁/OʻHH (Tiffno indeksi)	80,29 ± 2,1	49,1 ± 0,88	64,1 ± 0,96	76,1 ± 1,42	80,1 ± 1,09	P > 0,05	P < 0,01
SHT 25	85,29 ± 2,4	53,6 ± 0,89	76,6 ± 1,09	84,6 ± 0,99	85,7 ± 1,34	P > 0,05	P < 0,01

Ko'rsatkichlar	Amalda sog'lom bolalar (n=20)	Davolanishgacha (n=130)	I- guruh (n=37)	II- guruh (n=45)	III- guruh (n=48)	P	P ₁
SHT 50	92,95 ± 1,6	43,8 ± 2,34	74,8 ± 1,16	86,8 ± 0,97	98,3 ± 0,91	P > 0,05	P < 0,01
SHT 75	108,52 ± 2,42	61,4 ± 0,89	64,4 ± 1,12	84,3 ± 1,14	97,4 ± 1,24	P > 0,05	P < 0,01

Izoh:

P – davolanishdan oldingi ko'rsatkichlar bilan I-guruh o'rtasidagi farq ishonchliligi;

P₁ – I va III-guruhlar o'rtasidagi farq ishonchliligi.

3.2. Semizlik bilan bronxial astma bilan og'rigan bolalarda kuzatuv (katamnestik) tahlil

Uglevod almashinuvi holatini o'rganishda giperglikemiya va insulinning yuqori ko'rsatkichlari asosida insulinga sezuvchanlikni baholovchi klassik test o'tkazildi. Tadqiqotda ishtirok etgan barcha bemorlarda och qoringa glyukoza darajasi me'yorida bo'lgan. Insulinga nisbatan sezuvchanlikning pasayishi aniqlangan bolalarning 75 % (15 nafarida) bazal insulinning yuqori ko'rsatkichlari qayd etilgan.

Insulinga sezuvchanlikni baholash HOMA-R usuli orqali amalga oshirilib, och qoringa glyukoza va insulin darajasi asosida indeks hisoblandi. Boshlang'ich bosqichda insulinning yuqori darajalari 60 % (12 nafar) bolalarda aniqlangan, 2 soatlik glyukoza yuklamasidan keyin esa bu ko'rsatkich 70 % (14 nafar) ni tashkil etgan.

HOMA-R > 2,77 bo'lgan insulinga sezuvchanlikning pasayishi ko'rsatkichlari ko'p uchragan bo'lsa-da, metabolik sindrom (MS) rivojlanishining asosiy omili — bu och qoringa hamda glyukoza yuborilganidan keyingi insulin sekretsiasining ortishi bilan kechuvchi barqaror insulinga rezistentlikdir. Bu holat yuqori bazal va stimullangan immune reaktiv insulin (IRI) hamda HOMA-R ko'rsatkichlari bilan

tasdiqlanadi. Insulinga nisbatan sezuvchanlik darajasini aniqlashda HOMA-R indeksining stimulyatsiyadan keyingi yuqori qiymatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli IRI HOMA-R indeksi test davomida hisoblanib, uning yuqori ko'rsatkichlari stimulyatsiyadan keyingi insulin sekretsiyasi ortishini ifodalagan (ya'ni $> 2,77$ bo'lgan hollarda).

3.2.1-jadval

Semizlik bilan kechuvchi bronxial astmali bolalarda uglevod almashinuvi ko'rsatkichlarining dinamikasi ($M \pm m$)

Ko'rsatkichlar	Och qoringa glyukoza, mmol/l	2 soatdan keyingi glyukoza, mmol/l	IRI och qoringa, μ ME/ml	IRI 2 soatdan keyin, μ ME/ml	HOMA-R, μ ME/ml
1-guruh (n = 37)					
Davolanishdan oldin	$5,9 \pm 0,19$	$6,9 \pm 0,27$	$29,4 \pm 1,27$	$62,4 \pm 2,12$	$7,9 \pm 0,35$
3 oydan so'ng	$5,7 \pm 0,19$	$6,73 \pm 0,23$	$25,2 \pm 1,35$ *	$61,9 \pm 1,16$	$6,92 \pm 0,23$ *
6 oydan so'ng	$5,5 \pm 0,23$	$7,92 \pm 0,35$ * ^	$26,8 \pm 1,35$	$69,4 \pm 2,28$ * ^	$6,62 \pm 0,31$ *
12 oydan so'ng	$5,22 \pm 0,23$ *	$6,41 \pm 0,62$ * ^	$29,51 \pm 1,24$ *	$49,92 \pm 2,32$ * ^	$5,73 \pm 0,23$ * °
2-guruh (n = 45)					
Davolanishdan oldin	$5,8 \pm 0,17$	$6,73 \pm 0,14$	$27,3 \pm 0,78$	$58,4 \pm 1,53$	$6,82 \pm 0,20$
3 oydan so'ng	$5,11 \pm 0,20$ * ^	$6,31 \pm 0,24$	$21,44 \pm 0,78$ * ^	$40,42 \pm 1,33$ * ^	$5,3 \pm 0,17$ * ^
6 oydan so'ng	$5,13 \pm 0,17$ *	$6,7 \pm 0,24$ ^	$25,11 \pm$	$61,42 \pm$	$5,71 \pm$

Ko'rsatkichlar	Och qoringa glyukoza, mmol/l	2 soatdan keyingi glyukoza, mmol/l	IRI och qoringa, μ ME/ml	IRI 2 soatdan keyin, μ ME/ml	HOMA-R, μ ME/ml
			1,13 $\wedge$	1,88 $\wedge$	0,24 * $\wedge$
12 oydan so'ng	4,6 $\pm$ 0,17 * $\wedge$	6,11 $\pm$ 0,24 * $\wedge$	18,22 $\pm$ 0,92 * $\wedge$	40,2 $\pm$ 1,3 *	3,51 $\pm$ 0,17 * $\wedge$
3-guruh (n = 48)					
Davolanishdan oldin	5,1 $\pm$ 0,19	6,63 $\pm$ 0,23	22,21 $\pm$ 0,79	44,1 $\pm$ 1,61	4,81 $\pm$ 0,26
3 oydan so'ng	4,71 $\pm$ 0,16 $\wedge$	6,1 $\pm$ 0,32 $\wedge$	18,83 $\pm$ 0,77 $\wedge$ * $\circ$	29,71 $\pm$ 1,19 $\wedge$ * $\circ$	3,92 $\pm$ 0,23 $\wedge$ * $\circ$
6 oydan so'ng	4,6 $\pm$ 0,13 * $\circ$	5,83 $\pm$ 0,23 * $\circ$	15,21 $\pm$ 0,42 * $\wedge$ $\circ$	39,23 $\pm$ 1,42 $\wedge$	3,0 $\pm$ 0,13 * $\wedge$ $\circ$
12 oydan so'ng	3,4 $\pm$ 0,13 * $\wedge$ $\circ$	4,4 $\pm$ 0,13 * $\wedge$ $\circ$	7,81 $\pm$ 0,32 * $\wedge$ $\circ$	23,6 $\pm$ 1,06 * $\wedge$ $\circ$	1,63 $\pm$ 0,10 * $\wedge$ $\circ$

Izoh:

– davolanishdan oldingi ma'lumotlarga nisbatan farq ishonchli (* – $P < 0,05$ – $0,01$);

$\wedge$ – davolanishdan keyingi ma'lumotlarga nisbatan farq ishonchli ($\wedge$ – $P < 0,05$ – $0,001$);

$\circ$ – 2-guruh davolanishdan keyingi ma'lumotlariga nisbatan farq ishonchli ($\circ$ – $P < 0,05$ – $0,01$).

Uch oylik davolashdan so'ng 3-guruhda bolalarda IR HOMA-R ko'rsatkichi $3,9 \pm 0,24$ gacha kamaydi; bu 2-guruhga nisbatan $5,3 \pm 0,16$ ga past ($R < 0,001$) hamda 1-guruh ko'rsatkichlariga ($6,91 \pm 0,21$; $R < 0,001$) nisbatan ham ishonchli past edi.

Shunday qilib, ushbu indeksni nafaqat bazal, balki postprandial gipyerinsulinemiya (qiymatlar $> 3,0$ bo'lganda) uchun ham marker sifatida qo'llashi mumkin.

Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 6 oy o'tgach 2-guruh bolalarida glyukoza ko'rsatkichlari 3-guruhdagiga nisbatan yuqoriroq bo'lib, mos ravishda $4,6 \pm 0,09$ mmol/l va $5,1 \pm 0,17$ mmol/l ni tashkil etdi; 1-guruhda esa $5,5 \pm 0,24$ mmol/l qayd etildi. IR HOMA ko'rsatkichlari mos ravishda $3,0 \pm 0,14$ mkmE/ml va $5,7 \pm 0,26$ mkmE/ml bo'lib, 1-guruhdagi $6,6 \pm 0,31$ mmol/l bilan taqqoslandi.

Ushbu guruh bolalarida immunoreaktiv insulin (IRI) darajasi boshlang'ichda ham, postprandial davrda ham me'yordan ($N < 12,5$ mkmE/ml) yuqori bo'lib, o'rtacha $39,2 \pm 1,62$ mkmE/ml va $61,4 \pm 3,06$ mkmE/ml ni tashkil etdi. 12 oylik differensial terapiya fonida IRI ning och qoringadagi konsentratsiyasi o'rtacha $7,8 \pm 0,32$ mkmE/ml gacha, postprandial darajasi esa o'rtacha $23,6 \pm 1,08$ mkmE/ml gacha kamaydi ($P < 0,001$); bu 1-guruh ko'rsatkichlari $29,5 \pm 1,23$ mkmE/ml ($R > 0,001$) bilan taqqoslandi.

Insulinrezistentlik darajasini ifodalovchi HOMA-R indeksi 2-guruh bolalarida $3,5 \pm 0,14$ mkmE/ml bo'lib, 3-guruhdagi $1,6 \pm 0,09$ mkmE/ml ga nisbatan ahamiyatli o'zgarish bermadi. Bronxial astma va semizlik bilan og'rigan bolalarda 12 oylik davolashdan keyin o'rtacha glyukoza darajasining ishonchli pasayishi kuzatildi va bu eng yaqqol 3-guruhda qayd etildi: mos ravishda $4,6 \pm 0,18$ mmol/l va $3,4 \pm 0,15$ mmol/l; 1-guruhda esa $5,2 \pm 0,21$ ($R < 0,01$ va $R > 0,001$). Shunday qilib, III-guruh bolalarining 56%ida nemedikamentoz terapiya bilan birgalikdagi yondashuv och qoringadagi glyukozaning maqsadli darajasini tikladi (qonda och qoringadagi glyukoza $< 6,1$ mmol/l). Semizlik rivojlanishining muhim buzilishlaridan biri lipid almashinuvining xos buzilishidir. Bu shuni anglatadiki, davolovchi shifokor taktikasi yog' almashinuvi holatiga ta'sir etib, adipos va unga hamroh patologiyalar rivojlanish ehtimolini kamaytirishi kerak. Shu asosda biz UX, TG, yuqori zichlikdagi lipoproteidlar xolesterini (YZLP) va past zichlikdagi lipoproteidlar xolesterini (PZLP) kabi ko'rsatkichlarni o'rgandik; yuqoridagi qiymatlar tahlil qilindi. Semizlik belgilari mavjud bo'lgan bronxial astmali bemorlarda diferensial

davolashning lipid spektri ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, davolash boshlanishigacha barcha guruhlarda eng ko'p uchraydigan dislipidemiya varianti YZLP darajasining pasayishi bo'ldi (YZLP ning normal darajasi $>1,2$ mmol/l), bu birinchi va ikkinchi guruhlarda qayd etildi ($R>0,05$). Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, davolash boshlanishiga qadar ikkala guruhda ham YZLP, PZLP, UX va TG ning o'rtacha darajalari orasida statistik ahamiyatli farq yo'q edi ($R>0,05$). Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, uch oy o'tgach 3-guruh bolalarida YZLP ko'rsatkichlari 2-guruhdagiga nisbatan yuqoriroq bo'lib, mos ravishda $1,1\pm0,06$ mmol/l va $1,3\pm0,06$ mmol/l ($R>0,05$) ni tashkil etdi; 1-guruhda esa $0,8\pm0,04$ mmol/l ($R<0,01$) qayd etildi.

Davolash boshlanishigacha ko'rsatkichning oshishi kuzatilgan bo'lsa-da, u statistik jihatdan ahamiyatli emas edi. II-guruh natijalarini tana vazni ortiqqligiga bog'liq ravishda aterogen lipid fraksiyasi (PZLP) darajasi bo'yicha baholaganda, quyidagi xususiyatlar aniqlandi: bronxial astma va semizlikdagi bolalarda PZLP 3-guruhga nisbatan mos ravishda $3,3\pm0,13$ mmol/l va $3,2\pm0,12$ mmol/l darajada statistik ahamiyatli yuqori bo'ldi ($R>0,05$), biroq ishonchli farq qayd etilmadi. Davolash natijasida 1-guruh bolalarida PZLP $3,8\pm0,15$ mmol/l va $3,3\pm0,3$ mmol/l bo'lib, 2-guruhga nisbatan ishonchli o'zgarish bermadi. UXS uchun optimal qiymatlar AQShning bolalar va o'smirlarda xolesterin bo'yicha Milliy dasturi (National Cholesterol Education Program – NCEPIII (2001)) ko'rsatkichlari asosida, VNOK (Rossiya, 2004) tomonidan qabul qilingan darajalar bo'yicha qabul qilindi: erkaklar uchun $3,08\text{--}5,23$ mmol/l, ayollar uchun $3,21\text{--}5,2$ mmol/l. Davolash boshlanishiga qadar birinchi va ikkinchi guruhlarda UXS ning o'rtacha ko'rsatkichlari mos ravishda $5,2\pm0,19$ mmol/l va $5,1\pm0,24$ mmol/l bo'lib, uchinchi guruhga nisbatan sezilarli farq qayd etilmadi. 3-guruhni davolash uch oy ichida bolalarda UXS darajasini $3,2\pm0,13$ mmol/l gacha kamaytirdi; bu 2-guruhda $5,1\pm0,24$ ($R<0,01$) bilan taqqoslandi. Uch oy o'tgach ushbu ko'rsatkichlar optimal qiymatlarga keltirildi va

keyinchalik ushbu toifadagi shaxslarda xolesterin miqdorining yuqoriligi qayd etilmadi.

Tadqiqot guruhlarida TG ning yuqori darajasi eng kam uchraydigan holat bo'lib, davolashgacha 2 va 3-guruhlarda mos ravishda $2,3 \pm 0,10$ mmol/l va $2,0 \pm 0,09$ mmol/l ($R > 0,05$) qayd etildi; 1-guruhda esa $2,31 \pm 0,11$ mmol/l ($R > 0,05$) qayd etildi. Biroq 3-guruh bolalarida uch oy davolashdan so'ng ushbu ko'rsatkichlarning yaqqol kamayishi — $2,0 \pm 0,09$ mmol/l darajasigacha — 1-guruhdagi $2,3 \pm 0,11$ mmol/l ga nisbatan ($R < 0,001$) kuzatildi.

O'tkazilgan kompleks davolash asosida, bronxial astma va semizlikdagi bolalarda uch oy davomida lipid almashinuvi ko'rsatkichlarida katta o'zgarishlar qayd etilmadi. Shu munosabat bilan, mazkur toifa bolalar stasionardan chiqqach 6 va 12 oy davomida katamnestik kuzatuv olib borildi va laborator ko'rsatkichlar tahlil qilindi.

Insulinrezistentlikda yog' tarkibidagi buzilishlarning asosiy parametrlari qonda TG ning yuqori miqdori, YZLP konsentratsiyasining kamayishi, shuningdek, yuqori darajada aterogen bo'lgan mayda va zich PZLP larning mavjudligidir. III-guruh bolalarida insulinrezistentlik bilan bog'liq lipid spektr buzilishlarining kamayishi kuzatildi.

Olti oylik davolash davomida guruhlar orasida yuqori zichlikdagi lipoproteidlar bo'yicha aniq qiymatlar qayd etildi va ular davolash muddati bilan to'g'ri proporsional ravishda oshdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bir yillik kurlar yakunida guruhlar orasida yuqori zichlikdagi lipoproteidlarning aniq qiymatlari qayd etildi va ular davolash muddati bilan to'g'ri proporsional ravishda ko'paydi. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2 va 3-guruh bolalarida YZLP darajasi mos ravishda $1,5 \pm 0,03$ va $1,6 \pm 0,04$ gacha oshdi; bu 1-guruhdagi $1,3 \pm 0,06$ bilan taqqoslanganda ($R < 0,001$) ishonchli edi.

Yuqoridagi dinamika 3-guruh bolalarida nemedikamentoz terapiya bilan kompleks qo'llanilganida YZLP o'rtacha darajasining statistik ahamiyatli oshishi bilan bog'liq bo'ldi. Bronxial astma va semizlikdagi bolalarda davolash muddati bilan bog'liq holda PZLP ning o'rtacha qiymatlarining

ishonchli kamayishi kuzatildi: 2 va 3-guruhlarda mos ravishda $2,6 \pm 0,09$ va $1,7 \pm 0,04$ gacha, 1-guruhdagi $3,3 \pm 0,16$ ga nisbatan ($R < 0,001$). II-guruhda 12 oy davomida kompleks an'anaviy terapiya fonida PZLP yuqori bo'lgan bolalar umuman qayd etilmadi. Davolash muddati ortishi bilan PZLP ning o'rtacha qiymatlari orasida guruhlararo statistik ahamiyatli farq qayd etildi.

Diferensial davolashning UX ko'rsatkichlariga ta'sirini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2 va 3-guruh bolalarida UX mos ravishda $4,0 \pm 0,12$ mmol/l va $3,1 \pm 0,08$ mmol/l gacha kamaydi; 1-guruhda esa $4,4 \pm 0,16$ mmol/l ($R < 0,001$) bo'ldi.

Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2 va 3-guruh bolalarida TG ko'rsatkichlarining me'yorlashish tendensiyasi qayd etildi; bu 1-guruhdagi $1,3 \pm 0,05$ mmol/l ga nisbatan mos ravishda $1,2 \pm 0,04$ mmol/l va $1,0 \pm 0,02$ mmol/l gacha ishonchli kamayish ($R < 0,001$ va $R < 0,01$) bilan namoyon bo'ldi.

Yuqorida qayd etilgan dinamika bronxial astmada semizlikni davolashda vitamin D preparatini nemedikamentoz terapiya bilan birgalikda qo'llash terapiya samaradorligini oshirishini, aterogen lipoproteid fraksiyalarining (TG, PZLP) ahamiyatli kamayishiga va YZLP ning ortishiga ($R < 0,001$) olib kelganini ko'rsatadi. Yuqori zichlikdagi lipoproteidlarning parchalanish mahsulotlari (apoproteinlar va fosfolipidlar) lipoproteidlipaza ta'siri ostida yana yuqori zichlikdagi lipoproteidlarni shakllantiradi. Natijada, past zichlikdagi lipoproteidlarning klirensi yuqori zichlikdagi lipoproteidlar konsentratsiyasining ortishi bilan kechadi. Vitamin D bilan bemor bolalarga qo'llash hisobiga umumiy lipid ko'rsatkichlari 10% ga kamayishi kuzatildi.

Jadval 3.2.2

BA va MS bilan og'rigan bemorlarda lipid almashinuvi darajalari dinamikasi, ($M \pm m$)

Ko'rsatkichlar	YZLP (mmol/l)	PZLP (mmol/l)	UX (mmol/l)	TG (mmol/l)
1-guruh (n=37)				

Ko'rsatkichlar	YZLP (mmol/l)	PZLP (mmol/l)	UX (mmol/l)	TG (mmol/l)
Davolashdan oldin	0,6±0,03	4,0±0,15	5,6±0,27	2,4±0,1
3 oydan so'ng	0,81±0,05*	3,8±0,19	5,22±0,23*	2,3±0,12
6 oydan so'ng	1,0±0,06***	3,2±0,15	4,81±0,23	1,4±0,06***^^^
12 oydan so'ng	1,3±0,06**	3,3±0,15	4,4±0,15	1,3±0,06**
2-guruh (n=45)				
Davolashdan oldin	0,9±0,05	3,5±0,13	5,4±0,23	2,3±0,11
3 oydan so'ng	1,4±0,06	3,3±0,14	5,1±0,24	2,3±0,11
6 oydan so'ng	1,4±0,08***^	3,2±0,15	4,8±0,22**	1,3±0,33***^^^
12 oydan so'ng	1,5±0,06^^	2,6±0,09*^^^	4,0±0,14^	1,2±0,05**
3-guruh (n=48)				
Davolashdan oldin	0,9±0,05	3,4±0,16	4,2±0,19	2,4±0,11
3 oydan so'ng	1,1±0,06	3,2±0,12*	3,2±0,13***	2,0±0,08**
6 oydan so'ng	1,4±0,05***^^^	2,8±0,1*	4,1±0,13^^^	1,5±0,06***^^^
12 oydan so'ng	1,6±0,05***^^^ oo	1,7±0,05***^^^ oo	3,1±0,08*** oo	1,0±0,03***^^^ oo

Izoh: * — davolashgacha bo'lgan ma'lumotlarga nisbatan farqlar ishonchli (* — P<0,05, ** — P<0,01, *** — P<0,001),
^ — davolashdan keyingi ma'lumotlarga nisbatan farqlar ishonchli (^ — P<0,05, ^^ — P<0,01, ^^^ — P<0,001),

° — 2-guruh davolashdan keyingi ma'lumotlariga nisbatan farqlar ishonchli (° — $P < 0,05$, °° — $P < 0,01$).

Jadval 3.2.3

Semizlik bilan kechadigan BA bo'lgan bolalarda qon zardobidagi vitamin D ko'rsatkichlari dinamikasi, ($M \pm m$)

Ko'rsatkich	Prak. sog'lomlar (n=20)		I-guruh (n=37)		II-guruh (n=45)		III-guruh (n=48)	P	P1
		Davolas hdan oldin	Davolas hdan keyin	Davolas hdan oldin	Davolas hdan keyin	Davolas hdan oldin	Davolas hdan keyin		
Vit. D, ng/ml	36,2±0,4	16,03±1,0	16,7±0,9	17,0±0,8	25,4±0,9	17,2±0,8	30,96±0,76	0,001	0,001

Izoh: P — I va II guruh bemorlari ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqlar ishonchliligi; P1 — II va III guruh bemorlari ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqlar ishonchliligi.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2 va 3-guruh bolalarida qon zardobida vitamin D miqdorining normallashtirish tendensiyasi kuzatildi; bu 1-guruh ko'rsatkichlari 16,7±0,9 ng/ml ga nisbatan mos ravishda 25,4±0,9 ng/ml va 31,0±0,76 ng/ml gacha ishonchli oshishida namoyon bo'ladi ($R < 0,001$).

Jadval 3.2.4

Semizlik bilan birga kechadigan BA bilan kasallangan bolalarda xurujlar chastotasi

Tahlil guruhlar	1-guruh (n=37)		2-guruh (n=45)		3-guruh (n=48)	
	abs.	%	abs.	%	abs.	%
3 oy	21	56,8	21	46,7	20	41,7

Tahlil guruhlari	1-guruh (n=37)		2-guruh (n=45)		3-guruh (n=48)	
6 oy	17	45,9	15	33,3	13	27,1
12 oy	13	35,1	13	28,9	6	12,5

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, kompleks terapiyada vitamin D va dori-darmonsiz davolash olgan bolalarda 3 oydan keyin BA xurujlari 41,7%, 6 oydan keyin 27,1%, 12 oydan keyin 12,5% bolada kuzatildi. 1-guruhda 3 oyda — 56,8%, 6 oyda — 45,9%, 12 oyda esa ikki baravar yuqori — 35,1% bo‘ldi. 2-guruh bilan solishtirganda, 3-guruh bolalarida BA xurujlari 3 oyda 5,8% ga, 6 oyda 7,1% ga, 12 oyda 12,7% ga kam kuzatildi.

Shu tarzda, BA va semizlik bilan og‘rigan bemorlarning an‘anaviy terapiyasiga differensial davolashni qo‘shish bolada lipid va uglevod statusining sezilarli darajada barqarorlashuviga, qon zardobida vitamin D miqdorining normallashtirishiga olib keldi, bu esa patologik jarayonning klinik faolligi va tashqi nafas funksiyasi ko‘rsatkichlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Mazkur asosga ko‘ra, semizlik bilan og‘rigan bronxial astmali bolalarda dori-darmonsiz profilaktika sxemasi ishlab chiqildi (3.2.1-rasm).

7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bronxial astma bilan og'rig'an bemorlar

Anamnez yig'ish va klinik belgilar: hansirash, bo'g'ilish xurujlari, yo'tal, ko'p terlash, holsizlik, bosh og'rig'i, ishtahaning oshishi.

**Tana vaznini tuzatish. Insulinrezistentlikka ta'sir ko'rsatish.
Uglevod va lipid almashinuvini tiklash.**

Semizlikning oldini olish:

- kaloriya miqdori kamaytirilgan parhez (tovuq, mol go'shti, kurka, yog'siz baliq navlari, 5% yog'li tvorog, 2,5% yog'li sut, 1% yog'li kefir; mevalar, ayniqsa olma; sabzavotlar, lekin kartoshkadan tashqari; don mahsulotlari, shu jumladan bo'tqalar; yog'siz sho'rvalar va bulyonlar);
- emizishni uzaytirish va qo'llab-quvvatlash;
- faol turmush tarzini olib borish;
- infeksiya o'choqlarini sanatsiya qilish;
- jismoniy faoliyatni oshirish

Agar qon zardobidagi D vitamini miqdori 20–30 ng/ml bo'lsa, davolovchi preparatning dozalari — kuniga 4000TB bir oy davomida;
10–20 ng/ml bo'lsa — kuniga 6000 TB bir oy davomida;
10 ng/ml dan kam bo'lsa — kuniga 8000 TB bir oy davomida buyurilgan.
Davolash kursi tugagach, bemorlar profilaktik dozaga o'tkazilgan — kuniga 2000 TB miqdorida.

Rasm 3.2.1.

Semizlik bilan og'rig'an bronxial astmali bolalarda dori-darmonsiz profilaktika sxemasi.

Rasmda ko'rsatilganidek, sxema tuzishda anamnestic ma'lumotlar, tana vaznini tuzatish hamda dori vositalarisiz profilaktika usullari inobatga olingan. Shu bois, taqdim etilgan sxema maktab yoshidagi bronxial astma va semizlik bilan og'rig'an bolalarda profilaktika uchun katta amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa

Bronxial astma zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimi uchun muhim muammo hisoblanadi. Ushbu kasallikning holatlari butun dunyo bo‘ylab keskin ortib bormoqda.

So‘nggi yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar bronxial astma uchrash darajasining oshishi to‘g‘ridan to‘g‘ri semizlik bilan bog‘liqligini ko‘rsatmoqda.

Boshqa kasalliklar bilan birgalikda kechishi ushbu patologiyaning og‘irroq kechishiga, davolanish muddati va xarajatlarning ortishiga, nogironlik rivojlanish xavfining yuqoribo‘lishiga olib keladi, bu esa reabilitatsiya choralarini to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi. Bronxial astmaning tarqalishi turli mamlakatlarda 1% dan 18% gacha farq qiladi. Bugungi kunda dunyo bo‘yicha taxminan 300 million bemorda bronxial astma mavjud.

Zamonaviy davrning asosiy farqi — kechrivojlangan bronxial astma holatlarining ortganligidir. Ilgari kasallikning dastlabki belgilari asosan 1–7 yosh va 14–20 yosh oralig‘ida kuzatilgan bo‘lsa, bugungi kunda 50 yoshdan oshganlarda bronxial astma holatlari ortmoqda.

Klinik manzarani o‘rganish natijasida aniqlanishicha, bronxial astmada tashqi nafas olish funksiyasi (TNF) va tana massasi indeksi (TVI) o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud. Bronxial astma va semizlik birgalikda kuzatilganda nafas mushaklarining mexanik cheklanishi, distal nafas yo‘llarining torayishi fonida nafas hajmining kamayishi qayd etilgan. Shu bilan birga, tana vaznining kamayishi bronxial astma kechishini yaxshilab, TNF ko‘rsatkichlarini oshirishi aniqlangan.

Ko‘plab olimlar bronxial astma va semizlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni yog‘ to‘qimasining yuqori faolligi bilan izohlaydilar. Ortiqcha tana vazni dunyoning ko‘plab mamlakatlarida o‘limning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Metabolik sindrom muammosiga bo‘lgan qiziqish bu patologiyaning butun dunyoda barqaror o‘sish sur‘ati bilan izohlanadi. Hozirda yog‘ to‘qimasi faqat energiya zaxirasi sifatida emas, balki metabolik jihatdan faol organ sifatida qaraladi. Eng faol yog‘ turi — visseral yog‘ bo‘lib, u almashinuv jarayonlari va yurak patologiyalariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli metabolik sindrom, jumladan semizlikni davolashdagi asosiy yo‘nalish — turmush tarzini o‘zgartirish va semizlikka olib

keluvchi sabablarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lsa-da, bu o'zgarishlar hali ham yetarli darajada samarali emas.

Tibbiyotda istiqbolli yo'nalishlardan biri — parallel kechuvchi patologiyalarni o'rganish, tana massasi, arterial bosim, triglitseridlar, yuqori zichlikdagi lipoproteinlar va semizlik markerlarini aniqlashdir. Adabiyotlarda bronxial astma va semizlik birgalikda kechgan holatlarda ularning oldini olish va davolashning turli bosqichlari bo'yicha aniq ma'lumotlar yetarli emas.

Monografiya yozishdan maqsad bronxialastmabilanog'riganbolalardasemizlikninguchrashchastotasini, xavfomillarinianiqlash, klinikvalaboratorko'rsatkichlardinamikasinio'rganishhamdakompleksprofilaktikyo ndashuvishlabchiqishdaniboratbo'ldi. Shu maqsadda bronxial astma va semizlik bilan og'rigan bolalarda klinik-biokimyoviy xususiyatlar o'rganildi.

Tadqiqot bronxial astma bilan og'rigan bolalarning retrospektiv va prospektiv tahliliga asoslangan. Retrospektiv tahlil Andijon shahar bolalar shifoxonasi, Andijon tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi, VBKTTM va RIPIATM pulmonologiya va allergologiya bo'limlarida 2021- 2024 yillarda davolangan bolalar tarixlari asosida o'tkazildi.2021- 2024 yillarda bronx-o'pka patologiyasi bilan 7–14 yoshdagi 8919 nafar bola davolanishga murojaat qilgan, shundan 485 nafari (5,4%) bronxial astma tashxisi bilan qabul qilingan — 293 o'g'il bola va 192 qiz bola. Har bir bola yil davomida 4–6 marta qayta shifoxonaga yotqizilgan. 7–14 yoshdagi bolalarda o'tkazilgan ko'rik natijalariga ko'ra, 31 nafar (16,3%) bolada ortiqcha tana vazni, 6 nafar (3,1%) bolada esa semizlik qayd etilgan. Prospektiv chuqurlashtirilgan tadqiqot 190 nafar bronxial astma bilan og'rigan 7–14 yoshli bolalar o'rtasida o'tkazilgan: 60 nafar — faqat bronxial astma bilan, 130 nafar — bronxial astma va semizlik bilan. Shuningdek, 25 nafar sog'lom bola nazorat sifatida o'rganilgan.

Barcha bolalar bo'yicha kasallik tarixlari, tana vazni o'zgarishlari, oziqlanish xususiyatlari, jismoniy faollik, nevropatolog, endokrinolog va allergolog konsultatsiyalari o'tkazilgan. Semizlik darajasi SDS (standard deviation score)bo'yicha baholangan.

Semizlik va bronxial astma og'irlik darajasiga qarab bolalar quyidagicha taqsimlangan: (+2CO) — 37 (28,4%), (+2CO+3CO) — 68 (52,3%), (+3CO) — 21 (16,2%), (>+3CO) — 4 (3,1%) bola.

Tashxis qo'yishda anamnestik ma'lumotlar (JSST standartlariga muvofiq), klinik, laborator va funksional tekshiruv natijalari hisobga olingan. Bolalarga qon, siydik, najasning umumiy tahlili, kasallikning avj olgan va sog'ayish davrida ikki marotaba laborator tahlillar o'tkazilgan. Zaruratga ko'ra allergolog, endokrinolog va kardiolog konsultatsiyasi amalga oshirilgan.

Keyingi bosqichda 130 nafar bronxial astma va semizlik bilan og'rigan bolalarga kompleks davolash va profilaktika choralari, shuningdek, kuzatuv tadbirlari olib borilgan. Dastlabki so'rovda bolalarning antropometrik ko'rsatkichlari (bo'y, vazn, bel va son atrofi, TVI), arterial bosim, qon lipidlari va glyukoza miqdori aniqlangan. Ota-onalar uchun so'rovnomada irsiyat, allergik reaksiya, homiladorlik kechishi, turmush sharoiti, ovqatlanish odatlari, jismoniy faollik, zararli odatlar va boshqa xavf omillari haqida savollar kiritilgan.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida bolalar ikki guruhga bo'lingan: 130 nafar — bronxial astma va semizlik bilan, 60 nafar — faqat bronxial astma bilan og'rigan bolalar.

Qo'shimcha ravishda 40 sog'lom bola nazorat guruhi sifatida o'rganilgan.

Dinamik kuzatuv jarayonida 130 nafar boladan 37 nafari semizlik profilaktikasi bo'yicha tavsiyalarga rioya qilmagan (1-guruh — standart bronxial astma davosi). 45 nafari faqat dori vositalarisiz davolash usullariga amal qilgan (2-guruh — BA + dori vositalarisiz davolash), 48 nafari esa dori vositalarisiz vitamin D qo'llanilgan kompleks davolashga rioya qilgan (3-guruh).

Standart bronxial astma davosida quyidagilar qo'llanilgan: β_2 -adrenomimetiklar, xolinolitiklar, membranani barqarorlashtiruvchi dorilar, antigistaminlar va mukolitiklar. Natijalar 3, 6 va 12 oylik davrda qayd etilgan.

Bronxial astma oqibatlari, uning chastotasi va kattalarda o'tish holatlari bo'yicha ma'lumotlar turlicha. Shu sababli, profilaktika choralarini ishlab chiqish uchun semizlik rivojlanish xavf omillarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Biokimyoviy, instrumental va klinik usullar yordamida tahlillar o'tkazilgan. Qon zardobi biokimyoviy tahlillari davolashdan oldin, dinamik kuzatuvda va remissiya davrida bajarilgan.

Abdusalomov A.B. (2019) ma'lumotlariga ko'ra, bronxial astmaga moyillikni shakllantiruvchi omillar ichida atopiya eng muhim hisoblanadi, ayniqsa, birgalikda patologiya mavjud bo'lgan bolalarda.

Faktor tahlili shuni ko'rsatdiki, semizlik rivojlanish xavfini quyidagi omillar oshiradi: tug'ilishdagi ortiqcha tana vazni (>4000 g), hayotning dastlabki 3 oyida sun'iy oziqlantirish, erta qo'shimcha ovqat berish, televizor tomosha qilishning uzoq davom etishi, ovqatni televizor qarshisida iste'mol qilish, kayfiyat yomonligida ortiqcha ovqatlanish, qovurilgan taomlar, shirinliklar, un mahsulotlari va kechki ovqatni ko'p iste'mol qilish.

